

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2023-yil 27-oktabr, №43 (3053)



BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/my_vatanparvar_uz

instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/vatanparvar_uz

youtube.com/c/uzarmiya

IJTIMOIIY-SIYOSIY

ARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI



**HUSHYORMIZ, SERGAKMIZ
HAR LAHZA, HAR ON!**



**TUNGI
MASHG'ULOTLAR
MAHORATNI
OSHIRADI**

5



**ENG KUCHLI
AYOLLAR BELLASHDI**

6-7



**YOZGI PARAOSIYO
O'YINLARI**

18

JAMIYAT BARQARORLIGI

TARAQQIYOTNING G'OVAVIY ASOSI

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi mamlakat siyosiy rahbariyati, milliy intellegensiya, fan namoyondalari, qolaversa, u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimida ishtirok etgan fuqarolar uchun ma'naviy-ma'rifiy jabhada ham ancha murakkab kechdi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi ma'naviy qadriyatlarni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zlikni chuqurroq anglash, milliy g'oyani xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo'l qoymaslik bu boradagi asosiy strategik vazifadir.



Bugun jonajon O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya asosida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'yimoqda.

Mustaqillik yillarida milliy istiqloq g'oyasi xalqimizning milliy tiklanishiga xizmat qilishi xalqimiz manfaatlarini birlashtiradi. 2017-yildan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitutsiyamiz tamoyillariga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda erishilgan yuksak marralar, xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan tub islohotlar o'z samarasini namoyon qilmoqda.

Ma'naviy yuksalish milliy taraqqiyotning asosi ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq etish, o'z navbatida, milliy taraqqiyot modellarining xilma-xilligini ham qamrab oladi. Shu bois ma'naviy yuksalish jarayonlari mamlakatimizda liberal-demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu vazifalar milliy g'oyaning ijtimoiy-ma'naviy sohada namoyon bo'lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida, eng avvalo, ijtimoiy voqelikning ma'naviy qadriyatlarini to'g'ri baholay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan eskirgan, o'zidagi bunyodkorlik va ijobiy salohiyatini sarflab bo'lgan qadriyatlardan haqiqiy hayotbaxsh qadriyatlarni ajrata olishni o'rganish lozim. Biror bir qadriyatga baho berilar ekan, uning mamlakat mustaqil taraqqiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy asoslarini qay darajada mustahkamlay olishi, xalqimizning umumjahon ijtimoiy taraqqiyotining faol subyektiga aylanishiga xizmat qila olishi bosh mezon bo'lishi kerak.

Milliy g'oya butun jamiyat, millat va o'zbekistonliklar uchun xizmat qiladi. Milliy qadriyatimizga baho berganimizda, ularning milliy g'oyaga nechog'lik mos ekanini nazarda tutamiz. Lekin biz baholash jarayonida faqat alohida bir inson, muayyan ijtimoiy guruh, biror bir etnos, manfaatni emas, balki umuminsoniy jamiyatimiz, barcha o'zbekistonliklar manfaatini nazarda tutamiz. Shu bois yuqorida zikr etilgan mezon va tamoyildan foydalanib, milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimizni hamda bugun ayrim yot mafkuraviy poligonlar tomonidan targ'ib etilayotgan ba'zi g'oyalarni tahlil etsak.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy g'oyaga e'tiborni kuchaytirish, uni chuqur tahlil qilish va jamiyat a'zolariga singdirishning zamonga mos uslublarini yaratish yo'lida safarbarlikka strategik ustuvorliklar, hayotiy manfaatlar nuqtayi nazaridan qarash, ya'ni uning siyosat maydoniga olib chiqilishi o'ziga xos ulkan burilishni anglatadi. Milliy g'oyaga bo'lgan jiddiy ilmiy va siyosiy qiziqish, xalqimizning uni minnatdorlik bilan qarshi olganligi, umuman, taraqqiyot yo'limizga yondashuvning keskin yangilanganligi, shuningdek uning ma'naviy-madaniy, tarixiy-falsafiy tomirlarini o'rganishning mustahkam ilmiy asosga qo'yilganligini bildiradi.

Darhaqiqat, mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy jarayonlarning yangi bosqichga ko'tarilishi millatni maqsad sari yo'naltirish mas'uliyatli vazifa ekanligini anglatadi. Bu borada yakdillik jamiyatda birdaniga shakllanib qolmaydi. Mamlakat oldiga qo'yilgan pirovard maqsadning ijtimoiy-siyosiy yo'nalish tarzida barcha fuqarolardan birdek ma'qullanishi ma'lum fursatni talab qildi. Bizningcha, milliy g'oyaning vazifasiga nisbatan bildirilgan fikrlar xilma-xilligini ham aynan shu tendensiya doirasida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Tadqiqotlarimizning natijasiga ko'ra, uzoq va xayrli yo'lning boshida:

- birinchidan, ushbu maqsadga nisbatan hokimiyat va muxolifatning shakllanganligi;
- ikkinchidan, siyosiy, moliyaviy, sanoat va boshqa nufuzli ijtimoiy guruhlarni o'zaro birlashtirish;

– uchinchidan, hokimiyat tarmoqlari, markaz va mintaqalar, ijtimoiy qaramlar, jamiyat sohalari va boshqalar o'rtasida umummilliy kelishuv borasidagi zarur shart-sharoitning yetarli ekanligi kabilar tashkil etadi.

Milliy taraqqiyot andozasini yaratish jarayoni juda murakkab, son-sanoqsiz omillarni hisobga olishni, ularni atroflicha tahlil qilishni talab qiladigan uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Jamiyat kelajagi nuqtayi nazaridan milliy taraqqiyot andozasi millatning moddiy va intellektual salohiyati, bir necha ming yillar davomida shakllangan ko'nikmalarini hisobga olsa, xalq ruhiyatiga qancha yaqin bo'lsa, shuncha dunyo tajribasiga mos tushadi. Aynan shu siyosiy tajriba yetarli shakllanishi uchun o'ziga xos milliy g'oya, xalqimiz ideallaridan mos bo'lgan qarashlarni inobatga olish zaruratini vujudga keltiradi.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan g'oya bu jarayonda asosiy yo'naltiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi taraqqiyot uchun tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan mustaqil rivojlanish yo'li bilan millat g'oyasining uyg'unlashishi – O'zbekistonimizda ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Shunday ekan, unda barqarorlashtiruvchi tayanchlar ham mavjud bo'ladi. Faylasuf olimlar ta'kidlaganidek, **"bu makonda ma'lum bir chegaraga ega hudud va umumiy tildan ko'ra, ko'proq dunyoviy va ilohiy madaniyat yotadi"**. Xalqimiz hayot faoliyatining jabhalari – iqtisod, siyosat, boshqaruv, madaniyat, ma'naviyat, insonlararo munosabatlar tizimi va boshqalardan qaysi birini olib ko'rmaylik, zikr etilgan sivilizatsiya tashuvchi unsurlarning yaqqol ta'siri ko'zga tashlanadiki, unga e'tiborsizlik qimmatga tushishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, iqtisod va siyosat sohasining tadqiqotchilari tafakkurida hozircha ustuvorlik qilayotgan nigilizm, ya'ni boshqaruv bobida nimaiki G'arbda samara keltirayotgan bo'lsa, ularning barchasi universal xarakterga ega, degan fikrning ustuvorlik qilishi jiddiy xatolarga olib keladi. Jamiyatni boshqarish borasida xalqimiz to'plagan bir necha ming yillik an'analarini inkor qilishga sabab bo'lmasligi kerak. Azaldan davlat hokimiyatining jamiyat hayotida alohida nufuz kasb etishi, kuchli ijtimoiy siyosat, individ va jamiyat, fuqaro va davlat manfaatlarining muvofiqlashtirilishi, hayotning barcha jabhalari hamda tafakkurida kollektivizm tamoyilining ustuvorligi va sharoit taqozo qiladigan bo'lsa, shaxsiy manfaatlarining jamiyat manfaatlari bilan uyg'unligi qonuniyatini tashkil etadi.

O'zbekiston tanlagan rivojlanishning yangi yo'li Sharq va G'arbda mamlakatlarning rivojlanish yo'lga qiyosan olinganligi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston qadim vaqtlardan e'tiboran boshqa mamlakatlar bilan uyg'unlikda umuminsoniy qadriyatlarga xayrixohlikda jamiyatni boshqarishga odatlangan noyobligi uchun emas, balki insonga, jamiyat barqarorligiga yo'naltirilganligi, ya'ni ijtimoiy xususiyatga egaligi bilan mashhurdir. Erkin bozor iqtisodiyoti sari rivojlanayotgan iqtisodiyoti, tabiiy boyliklarga boy, bilimli aholiga va Yevropadan Osiyoga transport yo'llarining kesishgan joyida qulay mavqega ega bo'lgan mamlakat Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida lokomotivga aylanoqda.

Bunda rivojlanish yo'lini to'g'ri tanlash va uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish amaliyoti yaxshi samara bermoqda. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa hayotga endi kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozgan: **"Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand**

bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Bu esa ma'naviy xususiyatlariga ko'ra, bu jamiyat o'zida milliylikni umuminsoniylik bilan uyg'unlashtirgan yoshlarni tarbiyalash muhim hisoblanadi. Ya'ni shunda barcha ilg'or yangiliklarga, yutuqlarga ochiq, millatchilik yoki milliy nomukammallik tuyg'ularidan xoli, erkin fikrovchi va ijtimoiy mas'ul fuqarolarning erkin jamiyati quriladi.

Milliy g'oya ozod shaxsni ulug'laydi, erkin fikr yuritishni targ'ib etadi, ilg'or umumbashariy g'oyalarga suyanagan holda, uni amalga oshirishga undaydi. Milliy g'oya millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Millatning mustaqilligi, ozodligi, erkinligi, uning o'ziga xosligini esa faqat milliy g'oya, ularning moddiy kuchga aylanishi natijasida ta'minlash mumkin bo'ladi. Milliy g'oyaning tarixiy, falsafiy ildizlari uning tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik g'oyasi bilan uyg'un ekanligini e'tiborga olish zarur. Millat taqdiriga daxldor bo'lgan g'oyalar, eng avvalo, milliy zamin bilan bog'liq bo'ladi. Unga tayanmagan, undan bahra olmaydigan yoki undan uzilib qoladigan g'oyalar millat manfaatlariga xizmat qila olmaydi. Milliy g'oya tamoyillari umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro uyg'unlashib ketgan. Milliy g'oya umuminsoniy tamoyillardan "fikrlar xilma-xilligi", "g'oyalar, mafkuralar xilma-xilligi"ni e'tirof etadi. Bu qadriyatlar taraqqiyotning, mustaqillikni asrab-avaylash va mustahkamlashning kafolatidir. Milliy bag'rikenglik, milliy totuvlik va hamjihatlik, milliy-madaniy merosni hurmat qilish va erkin rivojlanish uchun sharoit yaratib berish falsafasi milliy g'oyada mujassamlashgan. Bizning fikrimizcha, jamiyatdagi inson o'rtasidagi bag'rikenglik, millatlararo totuvlik o'zaro hamjihatlikni namoyish qilishi bilan ifodalanadi.

Har bir mamlakat jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga intilar ekan, bu yo'lida uning milliy g'oyasi nimaga asoslanganligi ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, davlat boshqaruv strategiyasining maqsadi nimaga qaratilgani ham muhim. Binobarin, milliy taraqqiyotning ma'naviy-madaniy tayanchi hisoblangan milliy g'oyaning shakllanish jarayonini, mustaqillikdan so'ng asos solingan zamonaviy o'zbek davlatining ichki va tashqi siyosiy faoliyati bilan bog'lash to'g'ri bo'ladi.

Xulosa qilib quyidagilarni e'tirof etish lozim, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat va davlat farovonligi uchun muhim hisoblangan milliy g'oya haqida jiddiy fikr yuritilmoqda. Globallashtiruvchi asri hisoblangan XXI asr talablariga bardosh bera oladigan jamiyat bo'lishi uchun milliy ideal, g'oya zarur ekanligi ayni haqiqatdir. Ba'zi mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarning izdan chiqishiga mutaxassislar Gruziya, Ukrainada barqarorlikning izdan chiqishini, yot unsurlar tazyig'iga bardosh bera olmaslik holatini millat uchun ruhiy ozuqa hisoblangan milliy g'oya va mafkuraning yo'qligi yoki zaifligi bilan bog'lashayotganligi ham bejiz emas.

Har qanday taraqqiyot iqtisod, siyosiy tizim va sotsio-madaniy me'yorlardan tarkib topadi hamda ular tashqi va ichki omillar ta'siri ostida bo'ladi. Jamiyatning o'ziga xos ma'naviy-g'oyaviy salohiyati esa milliy g'oya "bunyodkor konservativ", madaniyat va ma'naviyat tashuvchisi sifatida funksiyalarni bajaradi.

Shohida ABBOSOVA,
Farg'ona davlat universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasini
o'qituvchisi

Ko'p mingyillik tariximiz sahifalariga shunday voqealar bitilganki, ularni o'qib, gohida g'ururga to'lasan, gohida qayg'uga cho'kasan, kishi. O'tmishning qorong'i ko'chalarida yurganingda go'yo mash'ala ko'targan kabi jasoratli, qalbiga ezgulikni jo qilib, bosqinchi va jaholatparaŕtlarga qarshi chiqqan mardlar ko'p uchraydi. Ular Vatan va el ozodligini shirin jonlaridan ham avlo ko'rishgan. Bu kabi aksariyat qahramonlarimizning hayot yo'li, jasorati tarix zarvaraqlarida halihamon o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Ulardan biri ko'pchilik nomini ham eshitmagan sarkarda Mingboy dodxohdir.



MINGBOY DODXOH KIM ETDI?

Mingboy dodxoh 1865-yilda Rossiya imperiyasi qo'shinlariga qarshi kurashda o'z jonini fido qilgan qo'mondon Aliquli amirlashkarning do'sti, safdoshi, Turkiston bosqinchilariga qarshi mardona kurashgan kishilarning yo'lboshchilaridan biri edi. U haqda Qo'qon xonligi tarixchilari Shamsiddin Shavqiy, Avazmuhammad Attor Ho'qandiy, Mulla Xolbek ibn Muhammadmuso Andijoniy, Muhammad Yunusjon Toib, Mirzo Olim Toshkandiy va boshqalarning asarlarida ko'p qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Xossatan, Mulla Xolbek ibn Muhammadmuso Andijoniy "Aliquli jangnomasi yoki Mulla Xolbek sarguzashtlari" asarida Mingboy dodxohni xonlikdagi jasur sarkardalardan biri sifatida e'tirof etadi. O'ni kelganda aytish lozimki, Mingboy dodxoh ham xalq orasida Aliquli amirlashkar singari juda katta hurmatga sazovor bo'lgan, Botir nomi bilan atalgan. Chor bosqinchilariga dahshat solgan lashkarboshilardan biri Aliquli amirlashkar bo'lsa, ikkinchisi Mingboy botir edi. U xonlikda qushbegi, parvonachi, dodxoh lavozimlarida xizmat qilgan. Mingboy dodxoh Aliquli amirlashkar tomonidan Xitoyga elchi qilib yuborilganligi haqida ham ma'lumotlar bor.

...Qo'qon qo'shini chor askarlari hujumini daf etish uchun Chimkent yaqinidagi Sharobxon qishlog'iga joylashadi. Oqbuloqni egallab olgan dushmanga qarshi 14-iyul erta tongdan jang boshlanadi. Ikki kun davom etgan bu jangda Mingboy botir, Mirzo Davlat, Ya'qubbek, Bekmuhammad kabi lashkarboshilar qattiq va shiddatli janglarda qahramonlik bilan kurashib, katta talafot berib bo'lsa-da, g'alabaga erishadilar. Bu haqda Avaz Muhammad Attor quyidagilarni yozadi:

"Ko'p o'ris kofirlar boshyalang, kulohlarini qo'lga olib, qo'rqib, uzr so'rash uchun Mullo Aliquli huzuriga keldilar. Sovg'a-salomlarini tortiq etib, dushmanlik va adovat ruhidagi kalimalarni unutib, o'z maqsadlarini bayon qilishdi".

Mag'lubiyatga uchragan chor harbiylari butunlay yakson bo'lishdan qutulib qolish maqsadida Aliquli

amirlashkarga elchi jo'natib, sulh tuzishni va qo'qonliklar tomonidan qo'yiladigan har qanday shartga rozi ekanliklarini bildirishadi. G'alabadan ruhlangan, shaharni chor qo'shinlarining bosqinidan asrab qolgan amirlashkar sharqona qadriyatlarga muvofiq, ya'ni mag'lubiyatga uchragan o'jiz g'animga shafqat qilish hissi bilan Chimkent ostonalaridagi muzaffariyat natijasida qo'ldan ketgan shaharlarni qaytarib olish imkoniyatini inobatga olib, sulhga rozi bo'ladi.

"Musulmonlar sulh vasiqasiga imzo qo'yub, o'rislardan ikki lak miqdorida Rossiya tillosida pul talab qilishdi. Bu esa Ho'qandi latifning ikki yuz yigirma besh ming bir misqollik ashrafiysiga teng edi. Ular Turkiston viloyatini ham qaytarib berishga rozi bo'lishdi", deb yozadi tarixchi.

Biroq sulh shartnomasi hech qanday qabihliklardan qaytmagan bosqinchilar uchun vaqtdan yutishga imkon beruvchi bir bahona edi xolos. Aliquli amirlashkar shig'ovul Muhammad Yunus Toibga Chimkentga borib, u yerdagi qo'qonlik sarbozlarni va Xayrmuhammadxon boshliq Toshkent sarbozlari va to'bxonasini yuborishga amr etdi. Shuningdek, parokanda bo'lgan askarlarni yig'ib, Mingboy parvonachiga topshiradi. U Mankent tarafdan Avliyootaga keluvchi dushman yo'lini to'sishi kerak edi. Toib buyurilgan vazifalarni ado etib yurgan vaqtda, "bir qancha qosir aql, ko'toh andesha umaro va sardorlar to'bxona borguncha sabr va tahammul qilmay", amirlashkarni jang qilishga undaydilar. Ular tezlik bilan yugursak, ruslar bir o'q otib, ikkinchisiga ulgurmayoq, qo'l jangiga kirishga majbur qilamiz, deb Aliqulini ishontiradilar.

Dushmanni qanday qilib bo'lsa ham mag'lub etish asosiy maqsadi bo'lgan amirlashkar askarlardagi bu g'ayratni ko'rib, jangga ruxsat beradi. Biroq o'ylangan reja amalga oshmay, juda ko'p sarbozlar o'qqa uchib, halok bo'ladi. Xuddi shu asnodan Avliyootadan kelayotgan chor askarlari Mingboy parvonachini mag'lubiyatga uchratib, Chimkentdagi podsho qo'shinlariga kelib qo'shiladilar. Chimkent mudofaachilari g'oyatda mushkul ahvolda qoladilar.

Aliquli amirlashkar Chimkent yaqinida turib, mudofaani mustahkamlashga kirishadi. Chor qo'shinlarining xatti-harakatidan xabardor bo'lib turishdek mas'ul vazifani ham Muhammad Yunus Toib va Ahrorxonto'ra shig'ovulga topshiradi. Bu haqda Muhammad Yunus Toshkandiy o'z xotiralarida shunday yozadi:

"Bir kuni O'rusiya askari tamoman to'p va to'pxona bilan Chimkentga yaqin bir tepaga ja'm bo'lib urush boshladilar. Bu tarafdin Jomador uning qarshisiga to'plarni rostlab, tepa atrofiga qoraqo'ndog' merganlarni joylashtirdi. Ularning otgan o'qi o'ruslarni xo'b besaranjom qildi. Rusiya askari mazkur tepadan surilib, pastga tushdi. Aris tarafiga yurib, bir yerda andak suvlandi. Musulmon askari ularning orqasidan tushdi. O'rtada otishmalar bo'ldi. Mingboshi parvonachiga miltiq o'qi tegib, shahid bo'ldi. Shu bilan ikki qo'shin bir-biridan ajrashdi. Ul kecha yotib, erta birlan xabardor bo'lsak, O'rusiya tamoman Arisdan o'tub, qochib ketibdi".

"Juda ko'plab odamlar nobud bo'ldi. Jang tugagach, Aliquli amirlashkar Qo'shtegirmonda o'rnashdi va barcha halok bo'lganlarni dafn ettirib, bu yerga "Shahidmozor" deb nom berdi". Bu hozirgi Chimkent yaqinidagi Qo'chqor ota qabristonida joylashgan.

Ushbu jang haqida chimkentlik Mulla Xolboy Mambetov shunday yozgan:

"Tutubinda turisti. Chetga chiqqan kofirdi, Nayzadastar quvisti. O'tti kofir miltiqdan, O'q jo'lg'on sonin suyratib, Bir porani ko'rsangiz, Soyg'a qochti seltiqday..."

Aliqul buytib jurg'an so'ng, Bul hodisni ko'rg'an so'ng, Botir Mingboy ot qo'ydi. Akang botir Mingboy deb, Ayirding yori xudoy deb.

Chobdi botir tabinib, Yalmovizday eminib, G'ayratina chidamay, Urdi to'bg'a jilisib..."

Mingboy dodxohning avlodlari hozirda Namangan viloyatining Pop tumani hududi hamda Tojikistondagi Sarvak qishlog'ida istiqomat qiladi. Konibodom shahridagi bir mahalla Mingboy nomi bilan atalgan.

Qo'qon xonligi sarkardasi, amirlashkar Aliqulining yaqin safdoshi, qo'shin ta'minotchisi, dodxoh, amirlashkar sifatida xonlikda shuhrat qozongan, Rossiya imperiyasi qo'shinlariga qaqshatqich zarba bergan, Vatan uchun jonfido qilgan Mingboy dodxoh jasorati haqida hozircha shu qisqa ma'lumotlar bilan cheklanamiz. Yangi tafsilotlarni fursati bilan e'lon qilish niyatimiz ham bor.

Sherali QO'LDASHEV,
tarix fanlari nomzodi,
dotsent, O'zR FA
Sharqshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi



BILIM VA TAJRIBA SINIVI

Qo'shnlarda batalyon taktik guruhlarining jangovar tayyorgarlik darajasini va bo'linmalarning hamjihatligini yanada oshirish, shaxsiy tarkibda shijoat, mardlik va matonat kabi xislatlarni yanada mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida "Eng ilg'or batalyon" ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

Asosiy e'tibor bo'linmalarning mo'ljallanishi bo'yicha vazifalari, shaxsiy tarkibning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish hamda kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan.

Nazorat mashg'ulotlari saf ko'rigi bilan boshlandi. Unda bo'linmalarning butlanganligi, shaxsiy tarkibning tashqi ko'rinishi (*anjom-aslahasi*), qurol va texnikalar holati, o'quv-moddiy bazasi tekshirildi. Shaxsiy tarkibning saf tayyorgarligini sinovdan o'tkazish tantanali marsh va saf qo'shig'i bilan

boshlandi. Shundan so'ng yakka tartibda saf elementlari qabul qilindi.

Jismonan chidamli, kuchli hamda chaqqon bo'lish bugungi kun askariga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Yurt o'g'lonlari 400 metr hamda 5 000 va 25 000 metr masofa yugurish va turnikda tortilish me'yorlarini bajarish orqali qanchalik kuchli va chidamli ekanliklarini namoyon eta oldi.

Navbatdagi kun "Yig'in" signali bilan boshlandi. Unga ko'ra, batalyon shaxsiy tarkibi belgilangan taktik vazifani bajarish uchun barcha zarur vositalar, qurol-aslahalar va harbiy texnikalar bilan kolonna tarkibida "Termiz" dala-o'quv maydoni

tomon harakatlandi. Harakat davomida zararlangan hudud, minalashtirilgan maydonlar kabi shartli to'siqlar yengib o'tilib, joylashuv joyi egallandi.

Harbiy xizmatchilarning merganliklari amaliy otish mashg'ulotlarida sinovdan o'tdi. Nishonlar yakson etildi. Bundan tashqari, zirhli texnika qurollaridan uzoq masofadagi nishonlarning aniqlik bilan yakson qilinishi hakamlar tomonidan baholab borildi.

Havoning noqulay sharoitiga qaramasdan yurt o'g'lonlari to'siqlar yo'lagidan o'tish, uzoq masofaga qurol-aslahalar bilan yugurish, zararlangan hududdan shaxsiy himoya vositalaridan

foydalangan holda o'tish, pichoq uloqtirish hamda qo'shimcha yuklarni ko'tarib, belgilangan marraga yetib kelish shartlarini ham muvaffaqiyatli bajardi. Harbiylar kechki sharoitlarda ham harakatlanib, belgilangan me'yorlarni topshirdi.

Ko'rik-tanlov davomida maxsus mashqlar, me'yorlar hamda belgilangan vazifalarning bajarilishi hakamlar tomonidan shaffoflik bilan baholab borildi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

KO'NIKMALAR YANADA MUSTAHKAMLANDI

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning "Muborak" dala-o'quv maydonida "Eng ilg'or batalyon" ko'rik-tanlovi yuqori saviyada bo'lib o'tdi.



Dastlab, yurt o'g'lonlari bilan saf ko'rigi o'tkazildi, shundan so'ng jismoniy tayyorgarlik tekshiruvlari boshlandi. Bunda ular turnikda aylanish, 400 metrga yuqori tezlikda yugurish va 5 kilometrga yugurish kabi mashqlarni bajardi.

Tanlovning navbatdagi bosqichida ishtirokchilar metin iroda va chidamlilikni o'zida namoyon etgan holda, turli

to'siqlari mavjud 30 kilometrlik masofani marsh yurgan holatda bosib o'tdi.

Sinovlar mobaynida yurt himoyachilariga birlashtirilgan texnikalarning sozligi hamda shayligi tekshiruvdan o'tkazildi. Harbiy texnikalar sozligi aniqlangach, 30 kilometrlik masofaga jangovar va avtomobil texnikalarida safar yurishi boshlandi. Zararlangan hududlardan va shartli

dushman pistirmasidan betalafot o'tish kabi mashaqqatli mashqlarda harbiy xizmatchilar o'z bilim va mahoratlarini yana bir bor namoyon etdi.

Jamlanish hududiga yetib kelgan shaxsiy tarkib joy xavfsizligini o'rganib, qo'riqlovni tashkil qildi. Shundan so'ng qatnashchilarning merganlik mahoratlarini otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida sinovdan o'tkazildi. Unda jangovar

texnika va qurollar orqali belgilangan nishonlar yakson etildi.

Mazkur ko'rik-tanlov harbiy xizmatchilarning tayyorgarliklarini nafaqat sinovdan o'tkazish, balki egallagan bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash uchun ham xizmat qildi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati



TUNGI MASHG'ULOTLAR MAHORATNI OSHIRADI

Qo'shinlarning yuksak jangovar tayyorgarligi qurol-aslaha va harbiy texnikalarni kunduzi va tunda ham mohirlik bilan qo'llay olishi, tog'-u cho'lda jang olib borish ko'nikmasiga ega bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishida ifodalanadi. Shu bois Qurolli Kuchlarimizda jangovar tayyorgarlik bo'yicha olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlarni tungi vaqtda o'tkazishga alohida e'tibor qaratilib, bo'linmalarning ko'rish imkoniyati past va qorong'i sharoitda qo'yilgan o'quv-jangovar topshiriqlarni samarali bajarishiga erishilyapti.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda bo'linmalarni tungi vaqtda boshqarish, ular tomonidan tungi ko'rish hamda optik mo'ljalga olish moslamalaridan foydalanish ko'nikmasini oshirish, ko'rish imkoniyati cheklangan vaziyatda ham jang olib borishni mashq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Nukus" umumqo'shin poligonida o'tkazilgan amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlarda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov ham ishtirok etib, ofitser va serjantlarga tungi ko'rish va optik mo'ljalga olish moslamalaridan foydalanish bo'yicha mahorat darslarini o'tkazdi.

Mahorat darsi davomida qo'mondon tungi sharoitlarda mahorat bilan jang olib borish, ikki qarama-qarshi kuchlar tomonidan tunda qurol va jangovar texnikalarni qo'llash dunyoda ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlar strategiyasining asosini tashkil etayotgani, ularni chuqur tahlil qilish natijasida tunda shaxsiy tarkib hamda texnika va qurol-yarog'larning soni emas, balki jangovar operatsiyalarning samarali o'tkazilgani hal qiluvchi natijaga olib kelayotganini ta'kidladi.

Tashkil etilgan o'quv nuqtalarida bo'linmalarda qo'llaniladigan tungi ko'rish moslamalari hamda qurol



va jangovar texnikalarning optik mo'ljalga olish moslamalarini ishlatish, ularning imkoniyatlari va taktik-texnik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berildi va amalda namoyish etildi. Navbatdagi o'quv nuqtasida avtomobil va zirhli texnikalar yorug'lik hamda ishora berish chiroqlarining tunda niqoblanishi, ularni qo'llashning asoslari haqida ma'lumotlar yetkazildi.

Harbiy topografiya bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotda esa

bo'linmalar bilan tunda xarita bilan va xaritasiz, yerdagi navigatsiya qurilmalari bilan harakatlanish, joylashgan hudud koordinatalarini aniqlash, joyda va harakatda oriyentirlash, azimutlar bo'yicha harakatlanish kabi mashqlar yoritib berildi.

Mashg'ulotlar Xorazm viloyatida joylashgan "Yangiariq" umumqo'shin poligonida ham o'tkazilib, harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalari boyitildi.

**Kichik serjant
Abdullajon UMARALIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

ENG KUCHLI



Qurolli Kuchlar akademiyasida “Vatan mehri yuragimda” shiori ostida Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi xotin-qizlar o'rtasida “To'maris izdoshlari” respublika tanlovi bo'lib o'tdi.



Bugun hayotimizning qaysi jabhasini olmaylik, ularning barchasida opa-singillarimizning fidokorona mehnat qilayotganini ko'ramiz. Ayniqsa, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlashda yigitlar bilan bir safda ayol-qizlarimiz ham munosib xizmat qilayotgani quvonarli. Ham ayollik, ham bekalik, ham zimmalaridagi mas'uliyatli vazifani sharafla bilan uddalab kelayotgan bu opa-singillarimizni tom ma'noda bugungi zamonaviy o'zbek ayollarining timsoli, deyishimiz mumkin. Mazkur tanlovda o'z sohasining professional bo'lgan ana shunday harbiy xizmatchi ayollar o'zaro bellashdilar. Harbiy xizmatchi xotin-qizlarning ongida tariximiz, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtiromni yuksaltirish, doim g'alabaga bo'lgan intilish, yuqori jangovar-axloqiy ruhiyatni va yuksak vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, qo'shinlarda sog'lom raqobat va o'zaro musobaqa muhitini yaratish, harbiy xizmatchi ayollarning xizmat nufuzini, Vatanga va o'z kasbiga bo'lgan mehr va sadoqat hissini hamda armiyaning professional tayyorgarligini oshirish maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlovni yuqori saviyada o'tkazish uchun mas'ul qilib O'zbekiston Respublikasi

kuch tuzilmalari, Madaniyat, Sog'liqni saqlash hamda Yoshlar ishlari va sport vazirliklari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi va boshqa vazirlik hamda idoralar belgilandi.

Tanlovning ochilish marosimida keng jamoatchilik vakillari, taniqli san'atkorlar, ziyolilar ishtirok etdi. Rasmiy marosimdan so'ng bellashuvlarga start berildi.

Ikki kun davom etgan tanlovda o'z kasbining ustasi bo'lgan eng kuchli ayollar bellashdi. Ishtirokchilar umumiy oltita shart – jamoani tanishtirish, otish tayyorgarligi, birinchi yordam ko'rsatish, belgilangan masofaga estafeta yugurish, erkin uslubda 50 metr masofaga suzish mashqi hamda “Men pazanda ayolman” shiori ostida somsa tayyorlash shartlari bo'yicha bellashdi. Ularning ishtirokini tajribali mutaxassislardan iborat hakamlar hay'ati baholab bordi.

Har bir jamoaning tanlovga katta tayyorgarlik ko'rib kelgani birinchi – tanishtiruv shartidayoq yaqqol sezildi.

AYOLLAR BELLASHDI



Muallif suratiga olgan



Ushbu shartda ishtirokchilar she'r, qo'shiq, videolavha yoki sahna ko'rinishi orqali o'zlar haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, ular chiqishlarida To'maris siymosini ham o'ziga xos tarzda gavalantirdiki, bu harbiy xizmatchi ayollarning san'atkorlik mahoratidan dalolat beradi. Albatta, bu jihatlarda ham hakamlar hay'atini bee'tibor qoldirmadi.

O'tish tayyorgarligi, birinchi yordam ko'rsatish, belgilangan masofaga estafeta yugurish, erkin uslubda 50 metr masofaga suzish mashqi shartlari ham murosasiz, qizg'in bahs-munozaralarga boy bo'ldi. Ushbu shartlar orqali harbiy xizmatchi ayollarning o'z sohalarining qanchalik bilimdoni ekanligi va shu bilan birga ulardagi ephillik, uddaburonlik va chaqqonlik ham sinovdan o'tkazildi.

Ko'rik-tanlovning yopilish marosimi ham ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Unda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva qatnashdi.

Marosimda so'zga chiqqanlar davlatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiy xotin-qizlarning mehnatini e'tirof etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, tanlovda Mudofaa

vazirligi jamoasi faxrli 1-o'rinni egalladi. Ichki ishlar vazirligi vakillari ikkinchi va Milliy gvardiya jamoasi uchinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Sharafli kasbida soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan tanlov g'oliblari diplom, pul mukofoti va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, "Eng jonkuyar harbiy xizmatchi xotin-qizlar jamoasi", "Eng namunali harbiy xizmatchi xotin-qizlar jamoasi", "Eng faol va tashabbuskor harbiy xizmatchi xotin-qizlar jamoasi" nominatsiyalari bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari munosib rag'batlantirildi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli san'atkorlari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturi mamlakatimiz osoyishtaligi va daxlsizligini ta'minlashdek muhim vazifani o'z zimmasiga olgan tanlov ishtirokchilariga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Podpolkovnik Gulnora HOJIMURODOVA



MUSTAHKAM HARBIIY INTIZOMNING JANGOVAR SHAYLIK UCHUN AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy intizomni mustahkamlash haqida gap borganda, albatta Prezidentimizning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinni: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbari – bu bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak".

Ushbu fikrlar davlatning joylardagi ishonchli vakili bo'lgan barcha komandir va boshliqlarga ham bevosita taalluqlidir. Shunday ekan, har bir komandir qo'shinlarda harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va harbiy xizmatning xavfsiz sharoitlarini ta'minlash bo'yicha ishlarni tanqidiy tahlil qilib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab olishi lozimdir.

Harbiy intizom bu barcha harbiy xizmatchilarning qonun, harbiy nizomlar tomonidan, komandirlar (*boshliqlar*) buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy va aniq rioya etilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy intizomni mustahkamlashga doir ishlar asosan Umumharbiy nizomlar asosida olib boriladi. Chunki Umumharbiy nizomlar harbiy xizmatchi faoliyatining barcha jabhalarini, majburiyat va vazifalarini belgilab beruvchi va tartibga soluvchi asosiy hujjat sanaladi. Qurolli Kuchlarimizning butun hayoti va kundalik faoliyati intizom nizomi talablari bilan qat'iy belgilanadi. Harbiy xizmatchilarni, komandir va (*boshliq*)larni harbiy intizomni saqlash va mustahkamlash borasidagi faoliyati intizom nizomida belgilab quyilgan.

Intizom nizomining 2-moddasida, "Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchining O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga bo'lgan harbiy burch va shaxsiy mas'uliyati, o'z xalqiga mislsiz sadoqatini his qilishga asoslanadi", deb tarif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom nizomining 4-moddasida, yuksak harbiy intizomga:

– harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarini tarbiyalash, komandirlariga (*boshliqlariga*) ongli tarzda bo'ysunish;

– har bir harbiy xizmatchining o'z majburiyatlari va harbiy nizomlar talablarini bajarishga shaxsiy mas'uliyati;

– harbiy qismda (*bo'linmada*) ichki tartibga bo'ysunish, barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kundalik rejimga qat'iy rioya qilish;

– jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish va u barcha shaxsiy tarkibni qamrab olishi;

– komandirlarning (*boshliqlarning*) o'z qo'l ostidagilarga kundalik talabchanligi va ularning ijrochiligini nazorat qilish, harbiy xizmatchilarning sha'nini hurmat qilish va bu haqda doimiy qayg'urish, ishonirish, jamoatchilik ta'siri kabi omillarni to'g'ri uyg'unlashtirish va o'rni qo'llash ekanligi keltirilgan.

Ichki xizmat nizomining 13-moddasida harbiy xizmatchining umumiy majburiyatlarida "Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladilar", deb alohida ko'rsatilgan.

Quyidagilar harbiy intizomni mustahkamlashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– ofitserlar tarkibi va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar va kursantlarning xizmatda va intizom sohasida shaxsiy namunaligini ta'minlash;

– jinoyatlar va halokatlar, eng avvalo, harbiy xizmatchilarning o'limi va majruh bo'lish holatlarining oldini olish, xizmatning xavfsiz sharoitlarini yaratish;

– harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro nizomga zid munosabatlarning buzilishi, intizomiy amaliyotdan chetga chiqish holatlariga barham berish;

– harbiy jamoalarni jipslashtirish;

– xizmat o'rnini harbiy xizmatchilar

tomonidan o'zboshimchalik bilan tashlab ketish hollarining oldini olish;

– nizomiy qat'iy tartib-intizomni saqlash, kun tartibini og'ishmay bajarish, shaxsiy tarkib ustidan doimiy nazorat o'rnatish;

– davlat va harbiy mulkning talon-toroj qilinishi shart-sharoitlari va imkoniyatlarini bartaraf etish;

– barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning xizmat va maishiy ehtiyojlari uchun munosib sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish.

Harbiy intizomni mustahkamlash Mudofaa vazirligi tizimidagi barcha bo'g'indagi komandir (*boshliqlar*) va ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan tashkil etiladi hamda o'tkaziladi. Harbiy intizomni mustahkamlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bu bo'linmalar (*harbiy jamoalar*)da harbiy intizom holatini tahlil qilib borishdir.

Komandirlar o'z bo'ysunuvchilarini tarbiyalashda, albatta tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlarini, xarakterini, bilim saviyasini, yo'l qo'ygan qilmishi darajasi va oqibatlarini hisobga olmag'i kerak. Bo'ysunuvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilganda komandir vaziyatni har tomonlama o'rganib, qo'llanilayotgan uslubning natijasini oldindan bashorat qilgan holda yondashsa, albatta tarbiyaning samaradorligi yuqori bo'ladi. Komandir va boshliqlar harbiy intizomni mustahkamlash bo'yicha ko'p tavsiyalarni berishi mumkin, biroq bo'linmadagi asl vaziyatni komandirdan ko'ra hech kim yaxshiroq bilmaydi. Shuning uchun komandir barchani tinglab, tarbiyaning aniq harbiy xizmatchiga mos bo'lgan shaklini va uslubini tanlashi lozim.

Harbiy intizom zamirida davlatimiz qonunlari, Qurolli Kuchlarimiz nizomlarida mustahkamlangan xalq irodasi ifodalanadi. Intizom bo'lmasa yaxshi qurollangan, ko'p sonli qo'shin ham intizomli, ozroq sonli lashkardan yengilishi mumkin, tarixda bunga misollar ko'p. Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchining O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga bo'lgan harbiy burch va shaxsiy mas'uliyati, o'z xalqiga mislsiz sadoqatini his qilishga asoslanadi.

Harbiy rahbardan bo'ysunuvchi mansabdor shaxslar tomonidan shaxsiy tarkibni ta'lim va tarbiyasi bo'yicha o'z xizmat vazifalarini qat'iy va og'ishmay bajarishlariga erishish, ishi va so'zi, shaxsiy namunasi bilan ularni oldinda turgan vazifalarni bajarishga safarbar qilish, har bir ofitser egallab turgan lavozimida intilib, bor kuch-g'ayrati bilan xizmat qilishiga, harbiy intizomni mustahkamlash bo'yicha ishlashning usul va uslublarini takomillashtirishiga, shaxsiy mas'uliyatini, faolligini, ishchanligini va qat'iyatligini oshirishiga erishishi talab qilinadi. Faqatgina shunday yondashuv yuqori harbiy intizom, qat'iy nizomiy tartibni zamonaviy talablar darajasida ushlab turish imkonini beradi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aynan ofitserlar tarkibining shaxsiy namunasi bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar uchun ibrat bo'la oladi, ularda nizom talablariga hurmat munosabatida bo'lishni singdiradi va shu bilan birga harbiy jamoada harbiy intizom darajasini oshirish uchun qulay ma'naviy sharoitlar yaratadi. Bu omil har bir rahbar-ofitserning xizmat faoliyatini baholashda hal qiluvchi omil bo'lishi lozim.

Komandir (*boshliq*)ning bo'ysunuvchi shaxsiy tarkib orasida harbiy intizomni mustahkamlash bo'yicha faoliyatining muvaffaqiyati birinchi navbatda uning yetukligi va qat'iyatligi, kasbiy bilim darajasi va axloqiy sofligi, uning har bir sohada – xizmatda, kundalik yurish-turishiga va shaxsiy odo-axloqiga bog'liq bo'ladi.

Hech qanday xizmat martabasi rahbar-ofitserni o'ziga bo'lgan yuksak talabchanlikdan ozod qila olmaydi. Qayerda komandir (*boshliq*) barcha sohalarda Umumharbiy nizomlar talablari, odo-axloq me'yorlariga qat'iy rioya qilsa, tarbiyalanuvchilar bilan yaqin bo'lsa, uning so'zlari bo'ysunuvchilarning ongiga yetib boradi va ularda qat'iy e'tiqodni shakllanishiga xizmat qiladi.

**Podpolkovnik
Alimardon O'TAPULATOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik
kafedrasida katta o'qituvchisi**

INTELLEKT

TIL BILIMDONLARI

Bundan o'ttiz to'rt yil muqaddam, 1989-yil 21-oktabrda o'zbek adabiy tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Va aynan ana shu ulug' ish bilan mamlakat mustaqilligiga ham zamin tayyorlandi. Shu kunlarda o'zbek adabiy tilimizni ulug'lab, yurtimiz bo'ylab qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida bo'lib o'tgan "Til bilimdonlari" intellektual o'yini ham ana shu qutlug' sanaga bag'ishlandi.



O'quv dargohi tadbir munosabati bilan har qachongidan ham gavjum bo'ldi. Bu yerda Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi kursantlari, Toshkent amaliy fanlar universiteti talabalari, Yoshlar ishlari agentligi Zangiota tumani bo'limi faollari, maktab o'quvchilari va ustozlar yig'ildi. Va ular to'rt jamoaga bo'linib, "Til bilimdonlari" intellektual o'yinida ishtirok etdilar. Yig'ilganlarni harbiy institutning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, falsafa fanlari doktori, podpolkovnik Fayzulla Shermatov qutladi.

Mazkur bellashuvda uch shart bo'yicha jamoalar o'zlarini ko'rsatdilar. Ularning hammasi xususida to'xtalishimiz shart emas. Ammo uchinchi shartning nihoyatda qiziqarli ekanini ta'kidlash lozim. Unda rasmlarga qarab, eng ko'p ishlatiladigan maqollarni topish kerak edi. Buni qarangi, harbiy institutning "Aloqachi" jamoasi topqirlikda hammani ortda qoldirdi. Rostini aytganda, "Amaliyotchi" qizlar jamoasi bu borada hammani lol qilsa kerak, deb kutilgan edi.

Til bilimdonlari bahsini psixologiya fanlari doktori, professor Saodat To'ychiyeva, Nargiza Mirahmedova, Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati kengashi bo'lim boshlig'i Erkin Sharopov baholadi. Tadbirni mayor Sherqo'zi Hakimov olib bordi.

Bellashuv o'z nomi bilan bellashuv. Faxrli uchinchi o'rin Toshkent amaliy fanlar universitetining "Amaliyotchi" qizlar jamoasiga nasib etdi. Ikkinchi o'rinni Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi kursantlar jamoasi egalladi. Birinchi o'ringa

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining "Aloqachi" jamoasi sazovor bo'ldi.

Ishtirokchilar va g'oliblar tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Tabiiy, bu tadbir olamshumul voqea emas. Ammo bu o'zbek adabiy tiliga, ona tiliga, onamizning tiliga yuksak ehtirom va e'tibordir!

**Inobat IBROHIMOVA,
«Vatanparvar»**



BIZ KIM, POSBONLAR SOG'LIK'INING POSBONLARI!

Harbiy oilada tug'ilganim bois bolaligim va o'smirligim asosan harbiy shaharchalarda kechdi. Harbiylar hayoti, harbiy qismlarda o'tkaziladigan tadbirlar menga begona emas, bolaligimda ko'p qatnashganman. Dadamning safda bo'linma tarkibida shaxdam qadam tashlab tantanavor o'tishlariga ko'p guvoh bo'lganman. Balki shunda uyg'ongandir menda harbiylikka havas.

Uyimizning to'ri – eng ko'rinarli joyini dadamning harbiy xizmat davomida olgan "Sodiq xizmatlari uchun" medali va esdalik, ko'krak nishonlari bezab turadi. Bolaligimda ushbu medallarni ko'ksimga taqib dadamning bosh kiyimini kiyib, bir necha bor ko'zguga qaraganim ham kechagidek yodimda. Balki shunda uyg'ongandir harbiylikka havas...

Dadam ta'tilga chiqqanlarida birga qishloqqa – bobom, buvim va boshqa qarindoshlarni ko'rgan borardik. Bobom va buvim (70 bahorni qarshi oldilar) "Bolam, sizning kasbingiz mashaqqatli, lekin eng savobli va sharafli kasb. Yurt qo'rish eng ulug' ish, bu kasbga munosib bo'lish kerak!" deya har gal dadamni duo qilardilar.

Bobom ko'pincha:

– Umrimning eng gullagan, ayni kuchga to'lgan davri o'zga yurtlarda Germaniyada kimga va nima uchun xizmat qilganimizni bilmay o'tdi. Ba'zida nazorat o'tkazish joyida navbatchi bo'lib turganimizda nemis bolakaylar o'ynab oldimizga kelib qoldi. Biz ularni ko'rib, olis yurtimizdagi jiyalarimiz esga tushib ularga kulib qarab, erkalatmoqchi bo'lsak, onalari yugurib kelib, qo'lidan tortib olib ketar va bizga qahr bilan qarardi. Biz o'shanda tushunmasdik, ularga yomonlik qilmasak, aksincha ularni qo'riqlasak nega bizga yovqarash qiladi, deb o'ylardik. Yaratganga shukur, mana farzandlarimiz o'z yurtida, o'z Vatani va xalqini qo'riqlash yo'lida xizmat qilyapti. Hamma ularga havas bilan qaraydi, – derdilar.

Hozir dadam pensiyadalar. Dadam bobom fikrining aksi o'laroq:

– Yaratganga shukur, umrimning 21 yili ona Vatanga xizmat qilishga baxshida bo'ldi. Bu damlarni hayotimning eng go'zal onlari deb hisoblayman. Ozmi-ko'pmi qo'limdan kelganicha yurtga xizmat qildim, obro'-e'tibor topdim, Qurolli Kuchlar faxriysi degan nomga erishdim, – deydi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida har bir o'smir kabi mening ham oldimda "Kim bo'lsam ekan?" degan savol ko'ndalang bo'ldi. Avvaliga harbiy bo'lmoqchi, ota kasbini davom ettirmoqchi bo'ldim. Lekin kasbning mashaqqatini o'ylab, qo'limdan kelmasa-chi, ota-onamni uyaltirib qo'ysam-chi, degan hadik yo'l qo'ymadi bu kasbni tanlashimga. Kimyo, biologiya fanlariga bo'lgan qiziqishim va shu fanlar bo'yicha olimpiadalardagi ishtirokim sababli ustozlarim mendan yaxshi shifokor chiqishi mumkinligini aytishdi. Shu sabab Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi akademik litseyga o'qishga kirdim. Litseyini tamomlagan vaqtimda, qaysi oliygohga o'qishga kirsam ekan, deb dadam bilan maslahat qildim, Dadam:

– Har bir inson o'z sevgan kasbi bilan shug'ullanishi kerak, men sizni harbiy bo'ling deb majburlay olmayman, kasbga havas qalbdan bo'lishi kerak, ko'rib turibmanki, shifokorlikka havasingiz baland. Lekin havasning o'zi kifoya emas, o'z qandir bersin, – deb duo qildilar. Lekin dadamning yuz

ifodasida "mening kasbimni davom ettirsangiz yaxshi bo'lardi" degan ma'noni uqib turardim. Shifokorlik kasbiga bo'lgan havas yuqori kelib, Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga hujjatlarimni topshirdim.

Shu yili harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda berilgan imtiyoz bilan davlat granti asosida talaba bo'lish baxtiga muvaffaq bo'ldim. Ishonchni astoydil oqlashga intildim. Yuragimning bir chetida otam kasbini tanlamay adashdimmikan, degan o'y-xayol ham yo'q emasdi.

2020-yil O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi tashkil etildi. Akademiyaga kirish shartlari bilan tanishib, dadam bilan harbiy shifokor bo'lish masalasida maslahatlashdim. Bir necha yil oldin dadamning yuz ifodasida aks etgan, lekin tiliga chiqmagan so'zlari yangradi:

– Ayni muddao, ota kasbida baraka bor, o'g'lim, to'g'ri qaror qilibsiz.

Harbiy tibbiyot akademiyasi qabul shartlariga muvofiq, bu yil barcha sinovlardan o'tib, akademiya kursanti degan maqomga erishdim.

Bolaligimda dadamni tarixiy asarlarni, ayniqsa buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur hayotiga oid asarlarni mutolaa qilganini ko'p ko'rganman. Uyimizda "Temur tuzuklari", Marsel Brionning "Men kim sohibqiron – jahongir Temur", Yunus O'g'uzning "Amir Temur" va boshqa tarixiy kitoblarni ko'p edi. Kursant bo'lgach, bu kitoblarning men uchun nechog'liq zarurligini uqdim.

Sentabrda "Vatanga qasamyod" qabul qildik. Hayotimdagi unutilmas kun bo'lib qolgan bu marosimning tomoshabini emas, endi uning sababchisi ekanligimdan qalbm o'zgacha g'urur va hayajonga to'ldi. Marosim yakunida ota-onam, ukam, qishloqdan tabriklash uchun kelgan buvim, amakim va jiyalarim o'rab

olishdi. Ularning hayajoni menikidan kam emasdi.

Dadam buvimga qarab:

– Ona, mana bu joy saf maydoni deyiladi, harbiylar uchun muqaddas joy. Keling, shu muqaddas joyda nabirangizni duo qiling! – dedilar.

Buvim:

– Ilohim, yurtimiz tinch bo'lsin, yurt qo'riqchilari sizlar ham hamisha omon bo'linglar! Yaratgan egam ilmingizni ziyoda qilsin. Ustingizdagi libosingiz biram yarashibdi, shu libosga munosib bo'ling, dadangiz yuzimizni yorug' qildi, siz ham Vatanga astoydil xizmat qiling bolam, – deya duo qildilar. Marosimdan so'ng yaqinlarimiz bizning yashash, o'qish sharoitlarimiz bilan tanishishdi.

Qaytar chog'i dadam:

– Bugun bayram, gapim biroz qo'polroq chiqsa ham aytib qo'yay, bunday yaratib berilgan sharoitda o'qimagan kursant ko'r bo'ladi. Astoydil o'qing, ishonchni oqlang! Endi yosh bola emassiz. Bizning, nafaqat bizning, yurtboshimizning, xalqimizning ishonchi, umidi katta sizlardan, – deya xayrlashdilar.

"Oddiydan murakkabga, osondan qiyinga" tamoyili asosida mashg'ulotlarni davom ettiryapmiz. Ustozlarimiz ta'kidlaganlaridek, "Yengib bo'lmas to'siq yo'q", asosiysi harakatdan to'xtamaslik.

So'zim so'ngida buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temurga taqlid qilib, u zot so'zlariga hamohang tarzda: "Biz kim Yangi O'zbekiston posbonlari sog'lig'ining posbonlari – Harbiy tibbiyot akademiyasi kursantlari, bo'lajak harbiy shifokorlarmiz. Kim bizning bilimimizga, kuchimizga shubha qilsa, kelsin, ko'rsin, suhbatlashsin, bellashsin!" desam aybga buyurmassiz.

Ahrorxo'ja NUMONXO'JAYEV,
Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi kursanti

FIRIBGARLIK JINOYATI

VA UNI HUQUQIY BAHOLASHDA MUHIM QADAM



So'nggi yillarda mulkka tajovuz qilish bilan bog'liq jinoyatlar orasida firibgarlik jinoyatining soni oshib bormoqda. Odamlar firibgarlarning gaplariga chuv tushib, aldanib qolmoqdalar. Ayniqsa, ushbu turdagi jinoyatning harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilayotgani va so'nggi yillarda salmog'i ortib borayotganligi alohida tashvishli hol. Chunki harbiy xizmatchilarning jinoyatga qo'l urishi harbiy xizmatchi maqomiga dog' tushiribgina qolmay, mamlakatimizning mudofaa salohiyatiga, harbiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi, fuqarolarimizning Qurolli Kuchlarga nisbatan ishonchi susayishiga sabab bo'ladi.

Shu bois ushbu maqola orqali firibgarlik, aldash va ishonchni suiiste'mol qilish, tushunchalari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, firibgarlik jinoyati iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar jumlasiga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Firibgarlik deganda, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish tushuniladi.

O'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini yuqorida ko'rsatilgan ikki usulni qo'llab, tekinga qo'lga kiritgan 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs ushbu jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Bunda agar firibgar korxonada, muassasada, tashkilotlarning mol-mulkini qo'lga kiritgan bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asos bo'luvchi zarar summasi oz miqdordan, ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan ko'p bo'lishi kerak. Bugungi kunda ushbu miqdor 9 900 000 so'mni tashkil etadi.

Agar firibgardan jismoniy shaxs jabrlangan bo'lsa, jinoiy javobgarlik masalasi talon-toroj miqdoridan qat'i nazar kelib chiqadi.

Endi "aldash" va "ishonchni suiiste'mol qilish" tushunchalariga to'xtalsak.

Aldash deganda, aybdor tomonidan jabrlanuvchining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqlarini qo'lga kiritish maqsadida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki mulk egasiga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarning yashirilishi tushuniladi. Masalan, aybdor avtosalonda ishlamasda, mashina olib berishga va'da beradi, jabrlanuvchini o'zining gaplariga ishonitirish maqsadida soxta shartnoma yoki boshqa hujjatlarni ko'rsatadi.

Ishonchni suiiste'mol qilish esa aybdorning mulk egasi bilan o'rtasidagi ishonchli munosabatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanilishidan iborat. Ishonchga turli holatlar, aybdor shaxsning xizmat mavqeyi yoki uning shaxsiy va qarindoshlik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shnisining harbiy xizmatchi ekanligini bilgan fuqaro harbiy xizmatga kirishda yordam qilishini so'rab murojaat qiladi. Garchi shaxsning bunday vakolati bo'lmasa-da, u ishonchni suiiste'mol qilib, uni harbiy xizmatga kirita olishini aytib, pul mablag'larini qo'lga kiritadi.

Bugungi kunda firibgarlik jinoyatining salmog'i ortib borayotgani, ayniqsa uning

axborot texnologiyalari, elektron to'lov tizimi, internet tarmog'idan foydalangan holda zamonaviy ko'rinishlarda sodir etilayotgani (turlu botlar orqali fuqarolarning plastik kartalaridan pullarni yechib olish, o'zga shaxsning elektron raqamli imzolaridan foydalanib onlayn shaklda kredit (mikroqarz)lar olish va h.k.) Jinoyat kodeksining 168-moddasidagi javobgarlik choralarining og'irlashtirilishiga sabab bo'ldi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-sonli yangi tahrirdagi qarori qabul qilindi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi mazkur qarorining ahamiyatli jihati haqida qisqacha to'xtalsak. Ya'ni ushbu qaror bilan sodir etilgan qilmishning qaysi holda firibgarlik jinoyati sifatida va qaysi holda fuqarolik-huquqiy munosabat, boshqacha aytganda, fuqarolar o'rtasidagi o'zaro qarz oldi-berdi munosabatlari sifatida huquqiy baho berilishi yuzasidan aniq tushuntirish berildi.

Endilikda mazkur Plenum qarori bilan tuzilgan bitimga asosan, o'zga shaxsning egaligiga o'tkazilgan yoki garov ta'minoti sifatida topshirilgan mulk yuzasidan shaxsning bitim tuzilishida boshqa maqsad ko'zlangani haqidagi vajlari, bitim qonunga muvofiq tuzilgani aniqlansa, bunday holat firibgarlik sifatida baholanmasligi (qarorning 11-bandi); agar shaxs o'zaro ixtiyoriy yozma bitim, kelishuvlar (qarz shartnomasi, tilxat, kafolat xati va boshqalar) asosida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini uni ijro etish jarayonida ayrim obyektiv sabablarga ko'ra (masalan, mulkiy nochorligi shartnoma tuzishda tarafklar uchun asos bo'lgan vaziyatning jiddiy o'zgarishi, og'ir kasalligi, favqulodda holat tufayli) bajara olmasa yoki o'zganing mulkini egallashga nisbatan qasd mavjudligini isbotlashning imkoni bo'lmasa, bunday holatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizo sifatida baholanishi, bu jarayonlar fuqarolik, iqtisodiy sud ish yurituvini tartibida hal etilishi lozimligi (qarorning 8-bandi 3-xatboshisi);

hozirgi kunda keng tarqalgan banklar va kredit muassasalaridan onlayn shaklda kredit olish (mikroqarz) maqsadida aldab yoki ishonchni suiiste'mol qilib, shaxsning elektron raqamli imzolaridan foydalanib, pul mablag'larini qo'lga kiritish firibgarlik sifatida baholanishi (qarorning 9-bandi) alohida qayd etib o'tildi.

O'z navbatida, firibgarlik jinoyatini sodir etganlik uchun qonunchilikda qanday javobgarlik belgilangan, degan haqli savol tug'iladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, firibgarlik jinoyati uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatni sodir etganlik uchun qilmishning og'ir-yengilligidan kelib chiqib, to'rt qismdan iborat holda, **jazo sanksiyasida bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorida jarima, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari jazosi, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolari nazarda tutilgan.** Shuningdek, ushbu moddaning beshinchi qismida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi haqida qoida belgilangan.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin, firibgarlik jinoyatining oldini olishda huquqiy-profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish, ayniqsa fuqarolarning huquqiy savodxonligini mustahkamlash, ushbu orqali ularda nafaqat firibgarlik, balki har qanday huquqbuzarlik va jinoyatlarga nisbatan murosasizlik tuyg'usini singdirish muhimdir.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori esa ushbu toifadagi jinoyatga qonuniy, asosli baho berish, qilmishni to'g'ri malakalashda jinoyat tarkibi va fuqarolik-huquqiy munosabat o'rtasidagi uchrayotgan muammolarga yechim bo'ladi.

A. JONQOBILOV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy sudi raising o'rinbosari

✓ SALOMATLIK

YUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI

Kuz-qish mavsumida havo haroratining keskin sovib ketishi natijasida ko'plab mavsumiy yuqumli kasalliklar avj oladi.

Bunday ko'ngilsizliklarning oldini olish va harbiy xizmatchilarning salomatligini saqlash maqsadida Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali pulmonologiya va endokrinologiya bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat podpolkovnigi

Alimurod Shonazarov hamda Mudofaa vazirligi Nukus Sanitariya-epidemiologiya nazorati bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat kapitani Zayniddin Turanov ishtirokida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda mutaxassislar yig'ilganlarga mavsumiy kasallik turlari, ularning oldini

olish usullari hamda asoratlari haqida tushunchalar berishdi.

Shuningdek, mutaxassislar okrug tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda bo'lib, harbiy xizmatchilarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, ular o'rtasida o'tkir yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi

va rivojlanishining oldini olish bo'yicha qilinayotgan tadbirlarni ko'zdan kechirishdi, shaxsiy tarkib uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**





Bugun mamlakatimizda harbiy sohada olib borilayotgan izchil islohotlar doirasida davlatimiz xavfsizligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan yurt himoyachilarining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

YANA BIR YANGI HARBIY MAJMUA



Farg'ona viloyatida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli yangi harbiy bo'linmaning foydalanishga topshirilishi ham ana shu islohotlarning amaldagi ifodasi bo'ldi.

Farg'ona tumanidagi Oloy tog' yonbag'irlarida joylashgan, atrofi Qirg'iziston yerlari bilan o'ralgan anklav hududdagi go'zal Shohimardon qishlog'ida barpo etilgan mazkur chegarani qo'riqlash bo'linmasi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun o'zida barcha qulayliklarni mujassam etgan zamonaviy harbiy shaharcha ko'rinishida qad rostladi. Yangi majmuada ma'muriy bino, sport shaharchasi, stadion va zamonaviy turarjoy binolari barpo etilgan bo'lib, bu yerda harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari uchun munosib xizmat va turmush sharoitlari yaratilgan.

Harbiy shaharchaning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi, sektor rahbarlari, faxriylar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Unda so'z olganlar bugun dunyodagi murakkab geosiyosiy vaziyat negizida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan bir paytda yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni saqlash, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashda Vatan posbonlarining o'rni beqiyos ekanini ta'kidlab, foydalanishga topshirilayotgan ushbu harbiy shaharcha ham fidoyi o'g'lonlarimizga katta kuch va shijoat, jangovar ruh hamda ko'tarinki kayfiyat bag'ishlashi xususida alohida to'xtalib o'tdilar.

Yangi xonadonlarning kalitlari va esdalik sovg'alar o'z sohiblariga tantanali tarzda topshirilgach, ramziy lentalar kesilib, yig'ilganlar harbiy qism va xizmat xonadonlarida yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishishga kirishdilar.

Har jihatdan mukammal tarzda qurilgan binolarning zamonaviy dizayndagi ichki va tashqi ko'rinishi, eng so'nggi rusumdagi axborot texnologiyalari bilan jihozlangan xizmat xonalari, harbiylarning ham ma'nau, ham jismonan barkamol



bo'lishi uchun ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik xonalari, kutubxona, maishiy xizmat xonalari, sport shaharchasi, stadion, yashash uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan xizmat xonadonlari barchada katta taassurot qoldirdi.

– Harbiy xizmatchilarimiz bu yerda oila a'zolari bilan birga istiqomat qilishadi. Bu maskanda otalari izidan borib, Vatan himoyachisi bo'lish istagidagi kichkintoylarimiz uchun ham, ertamiz egalarining tarbiyasi bilan mashg'ul bo'layotgan harbiy oila bekalari uchun ham barcha qulayliklar mavjud. Avvallari bunday imkoniyatlar ko'pchilik uchun orzu edi. Hozirda eng olis hududlardagi chegara bo'linmalari ham mana shunday go'zal shaharchalar ko'rinishida qad rostlamoqda. Bugungi tadbirga yigitlarimizning ota-onalari va yaqinlarini ham taklif etdik. O'zlari kelib, farzandlari va nabiralari yaratilgan qulayliklar bilan tanishsalar, ko'ngillari xotirjam bo'ladi, – deydi podpolkovnik G'ayrat Usmonov.

Albatta, inson qadri ulug'lanayotgan, har bir fuqaroning o'z hayotidan mamnun bo'lib, baxtli hayot kechirishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgan Yangi O'zbekistonda, sarhadlarimiz himoyachilari hamda ularning oila a'zolariga qaratilayotgan bunday yuksak e'tibor ularga katta kuch-g'ayrat va matonat bag'ishlab, yangi-yangi zafarlar sari undashi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Panipat jangi arafasida Bobur allaqachon katta harbiy bilimga va yetarli jangovar tajribaga ega edi. Zero u o'sha davrning Shayboniyxon, Shoh Ismoil Safaviy, Sulton Husayn mirzo singari yirik hukmdorlarning harbiy mahorati – taktika va strategiyasini yaxshi o'zlashtirgandi. Bobur qo'shinida o'z davrining ilg'or harbiy qurollari – miltiq va to'fanglar bilan qurollangan askarlar hamda zambaraklardan foydalana oladigan Rumlik (Turkiyalik) mutaxassis – artileriyachilari ham bor edi.

Ibrohim Lo'diyning qo'shini Jamna daryosining o'ng qirg'og'i bo'yab, Bobur tomon harakatlanayotgan edi. Bundan tashqari, Dehli sultoniga yordam tariqasida Hisori-Firuzadan vazir Hamidxon boshchiligidagi qo'shimcha ko'mak kuchlari ham yo'lga chiqqandi.

Boburga Hamidxonning Sulton qo'shini bilan birlashayotgani xabari yetib kelgach, o'g'li Humoyun mirzoni ilg'or jo'natib, Hisori-Feruz qo'rg'onidan kelayotgan qo'shinni qanday yo'l bilan bo'lsa ham to'xtatib qolishga, agar uddalay olsa mazkur qo'shinni mag'lub etishga buyuradi. **Boburning o'n sakkiz yoshli o'g'li bu vazifani a'lo darajada bajaradi.** Humoyun nafaqat bu qo'shinni yengishga, balki uning qarorgohi Hisori-Feruzani ham egallab olishga muvaffaq bo'ladi (1526-yil 26-fevral).

Bu orada Boburga Sulton Ibrohim Lo'diyning asosiy qo'shiniga qo'shilish maqsadida, Dovudxon va Haytimxon boshchiligidagi 5-6 minglik qo'shin ham Miyoni-Duobda to'planib turganligi xabari keladi. **Boburning sara amirlaridan tashkil topgan ilg'or qismlari mazkur guruhni ham mag'lubiyatga uchratadilar.**

Boburning birin-ketin qo'lga kiritgan g'alabalari, aftidan, Ibrohim Lo'diyning ittifoqchilari orasida sarosimalik, tushkunlik va parokandalik kayfiyatlarini uyg'onishiga sabab bo'lgan ko'rinadi. Sulton amirlarining ba'zilar Bobur tomoniga o'tish istagini izhor qilsalar, ayrimlari muzokara yo'lini izlay boshlaydilar. Aprel oyining boshida Bobur va dushman qo'shinlari Panipat maydoniga yaqinlashib, saf torta boshladilar: "Bu qaror bila ko'chub, ora qo'nub, panjshanba kuni, jumoduloxir oyining salxi Panipat kelduk. O'ng qo'l shahr va mahallot bo'ldi".

Bobur Ibrohim Lo'diydek kuchli va son jihatidan katta ustunlikka ega bo'lgan raqibga bas kelish uchun, **O'rta Sharqning turli mamlakatlaridagi jangovar tajribani hisobga olgan holda, o'z qo'shinini murakkab bir tarzda yasol – jangovar tartibga soladi.** U, jang oldidan harbiy kengash tuzib, dushman bilan qachon, qaysi maydonda va qay tarzda jangga kirishish bo'yicha puxta reja (taktika va strategiya) ishlab chiqishga kirishadi. Jangdan oldin o'z qo'shinini, dushman hech bir tomondan zarba bera olmaydigan darajada joylashtirishga intiladi. Temuriylar qo'shining kayfiyatida ham g'alabaga bo'lgan ishonch umidlari sezilarli darajada past, ba'zi askarlar ruhiy xavotirda edilar. Zero Vatanlaridan ancha uzoqda, begona xalq va begona yurtida, qolaversa, qarshilarida hali yaxshi o'rganilmagan, jang uslubi noma'lum bo'lgan qudratli raqib turar edi. Bobur o'z lashkarboshi va qism boshliqlarining mas'uliyatini oshirib, ularga tayin vazifalar yuklaydi hamda jang vaqtida qanday harakatlanish lozimligini qat'iy belgilab beradi.

Harbiy kengash qaroriga ko'ra, hal qiluvchi jang maydoni sifatida Dehlidan 90 km shimolda joylashgan Panipat shahri atroflari tanlab olinadi. Zero ushbu shahar atrofi asosan tekis maydondan iborat edi, o'ng tomonda shahar qo'rg'oni, chap tomonda esa Jamna daryosi oqib o'tardi. **Bunday geografik sharoit qo'shinning erkin harakatlanishi uchun, shuningdek og'ir to'p aravalarining harakatlanishi va joylashuviga ham qulay tabiiy muhit sifatida qaralgan edi: "Kengash qilib, ra'ylar**

xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun bir qator qurilish-muhandislik ishlari olib boriladi. Jumladan, markazdagi to'pchilar himoyasi uchun aravalardan tashkil topgan o'ziga xos mudofaa chizig'i (istehkom) barpo etiladi. **Merganlarga ana shu aravalarda va to'siqlar ortidan dushmanni tinimsiz o'qqa tutish vazifasi qo'yiladi:** "Farmon bo'ldikim, jami cherik eli faroxo'ri holig'a aroba kelturgaylar. Yetti yuz aroba bo'ldi. Ustod Aliqulig'a farmon bo'ldikim, Rum dasturi bila arobalarining orasida zanjir o'rning'a o'yning xomidin arg'amchilar yeshib, bir-biriga bog'lag'aylar. Tufangandozlar bu aroba va to'rularning keynida turub, tufang otqaylar".

"Boburnoma" ma'lumotlariga ko'ra, Bobur qo'shinining yasoli, ya'ni jangovar tartibi quyidagicha edi.

Markaz (g'ul, qalb)da shaxsan Boburning o'zi, oliy jangovar bayrog'i bilan qo'mondonlik qilardi. Markazning o'zi ham o'ng va chap "qo'l"lar bilan mustahkamlanadi. Har bir qo'lda 7 ta bo'linmadan iborat maxsus qism tashkil etiladi va ularga tajribalari amirlar

Humoyun mirzo, Xoja Kalon, Sulton Muhammad do'ldoy, Hindubek, Vali xazinachi va Pirquli Siystoniy boshchilik qilardi.

Chap qanot (javong'or) da – Muhammad Sulton mirzo, Mahdiy Xoja, Odil Sulton, Shoh Mir Xusayi, Sulton Junayd barlos, Qutluqqadam, Jonibek, Muhammad baxshi va Shoh Husayn Yorakiy mo'g'ul tayinlanadi. To'lg'ama manyovrini amalga oshirish uchun, har ikki qanotning chetida mo'g'ullardan iborat yengil qurollangan maxsus otliq bo'linmalar – qunbul (Bobur, bu qismlarga "burong'or va javong'orning uchi" atamasini beradi) tashkil etiladi. Uning vasifasiga "g'anim kishisi yovuu kelgach, bu ikki bo'lak to'lg'ama o'ng qo'ldin, so'l qo'ldin g'animning orqasig'a yevrulgaylar", ya'ni dushman paydo bo'lgach, uni o'ng va chap tomondan chetlab o'tib, orqa tomondan kuchli zarbalar berib, dushmanni markazga siqib borishi lozim edi. Shunga ko'ra, o'ng qanotning qunbulida – Vali Qizil, Malik Qosim va Bobo Qashqa tayinlanadi.


Chan qanotning qunbuli (javong'orning uchi)da – Qaroko'zi, Abulmuhammad

mustahkamlanadi. Zero bu arqonlar birinchidan, bostirib kelayotgan jangovar fillar hujumini mumkin qadar to'xtatib qo'yishga, ikkinchidan esa orqadagi asosiy qo'shinni safni buzmasdan, jang maydonida tartibli harakatlanishini ta'minlab berardi.

Mudofaa istehkomining ba'zi joylarida, orqadagi qanot qo'shinlar harakati uchun 100–150 otliq o'ta oladigan darajada bo'sh maydonlar qoldirilgan: "Har bir o'q otimi yerda yuz-yuz ellik otliq chiqqudek yerlar qo'yuldi". Arava va qalqonlar ortida o'qotor askarlar – **kamonchi (tirkash), miltiqchi, ra'dandoz va to'fangdozlar** guruhi joylashtirilib, dushmanni uzluksiz o'qqa tutishdan iborat bo'lgan.

To'pchi-farangilar (artilleriya) bo'linmasiga rumlik (ya'ni turkiyalik) mutaxassislar Ustod Aliquli va Mustafo Rumiylar boshchiligidagi to'pchilar ("farangi zarbzantliq arobalari qurib") mudofaa chizig'i (aravalar) ortida joylashtiriladi. Ular ayni vaqtda, miltiqchi va to'fangdozlar guruhiga ham umumiy rahbarlik qilgan. Mazkur to'pchilarga "Rum dasturi (ya'ni turklar usuli)" asosida

BOBUR MIRZO "PANIPAT" DA QANDAY ZAFAR QUCHGAN EDI?



munga qaror toptikim, Panipat shahredur, mahallot va uylari qalin, har taraf mahallot va uylar bo'lur, yana atrofini aroba va to'ra bila berkitib, tufangandoz va yayoqni aroba va to'ra orqasida tayin qilmoq kerak".

Bobur qo'shinining o'ng qanotini Panipat shahri qo'rg'oni bilan imkon qadar yaqinroq joylashtirishga, uning devorlari bilan tutashtirishga qaror qiladi. Zero shaharning mahalla va imoratlari qo'shinining o'ng qanotga berishishi mumkin bo'lgan zarbalarga o'ziga xos to'siq sifatida xizmat qilardi. Bobur qo'shinining eng zaif tomoni esa to'pchi-zambaraklar joylashgan markaz hamda qo'shinning chap qanoti edi. Zero zarur paytda chekinish uchun og'ir zambaraklarning harakatlanishi nihoyatda sekin, chap qanotdagi qo'shinlarga esa to'lib-toshib oqayotgan Jamna daryosi to'siq qilishi shubhasiz edi. Shu sababli ushbu taraflardan kelinadigan

tayinlanadi. Jumladan, **G'ulning o'ng qo'lda** – Chin Temur Sulton, Sulaymon mirzo, Muhammadiy ko'kaldosh, Shoh Mansur barlos, Yunus Ali, Darvesh Muhammad sorbon va Abdullo kitobdor; **G'ulning so'l qo'lda** – Xoja Xalifa, Xoja Mirmiron, Ahmadiy parvonachi, Turdibek, Qo'chbek, Muhib Ali Xalifa va Mirzobek tarxonlar joy oladi. **O'ng qanot (barong'or)**da – Boburning o'g'li

nayzaboz, Shayx Jamol barin, Mahdiy va Tengriquli Pishag'iy mo'g'ul boshchilik qiladilar.

Irovul (avangard)da – Xisrav ko'kaldosh va Muhammad Ali jang-janglar qo'shinining oldingi safidan joy oladilar. **Tarh (rezerv qo'shinlari)**da – Abdulaziz miroxo'r boshchiligidagi zaxira qo'shinlari zarur holatlarda har ikkala qo'l va qanotga ko'mak berishga tayyor edi. Bu qo'shinlarni Bobur o'ng qanotga yordamga jo'natganini eslatadi: "G'animning qarasi ko'runganda, burong'or sari mayli ko'prak edi, bu jihattin Abdulaziznikim, tarhqa muayyan edi, barong'org'a ko'mak yiborildi".

Mudofaa chizig'i. Qo'shinning old qismini himoya qilish maqsadida, butun qanotlar bo'ylar 700 ta (aroba) aravalardan iborat o'ziga xos mudofaa chizig'i, himoya istehkomi tashkil etiladi. Aravalarining old tomoni, fil va otliqlarga qarshi qo'yilgan uzun nayza va tikanli shox va yog'och to'siqlar bilan himoyalanganadi. Bu to'siqlar ayni vaqtda aravalarni dushmandan yashirish uchun o'ziga xos niqob (maskirovka) vazifasini ham o'taydi. Har ikki aravalardan keyin 6-7 ta yog'och to'ralar ya'ni to'siq (shit) va temir qalqonlar o'rnatiladi, ular bir-birlari bilan mol terisidan to'qilgan arqonlar bilan bog'lanib

artilleriyani joylashtirish va jang mobaynida raqibga muntazam to'p otib, dushman safini buzish orqali lashkarlarni to'z'g'itib yuzorish vazifasi qo'yiladi. Aytish mumkinki, Boburning bunday jangovar yasoli, ayni vaqtda, dushmanni zarur paytda qurshab olishga, uni qopqonga tushirib, pistirmadan turib yakson qilishga qaratilgan puxta rejasi ham edi.

Dehli Sultoni Ibrohim Lo'diy qo'shinining jangovar tartibi tarixchilar tomonidan ta'riflanmagan bo'lsa-da, ammo ularning yakdil fikriga ko'ra, uning qo'shini 1 lak, ya'ni 100 000 ga yaqin askar va 2 000 ga yaqin jangovar fillarga ega bo'lgan. Mirzo Muhammad Haydar Hindiston qo'shinining soni bir lakdan ziyod ekanini qayd etadi. **Boburning qizi Gulbadanbegim esa hindlarning 180 ming otliq hamda 1 500 ta jangovar fillar bilan jangga kirganini ta'kidlaydi.** Bobur esa yuqorida aytib o'tilganidek, 10-12 mingga askarga ega edi, xolos.

Hindiston qo'shinining tuzilishi, an'anaviy tarzda – avangard, o'ng va chap qanotlar hamda markaz qo'shinlaridan iborat bo'lgan. Sultonning eng asosiy quroli uning jangovar fillardan tashkil topgan qismlari hisoblanardi. Shuning uchun, Ibrohim Lo'diy bu jangovar

fillarni qo'shinning eng oldingi safiga – avangardga joylashtiradi. Jangovar fillar asosan otliqlarga qarshi ishlatilgan, chunki ot fillar hayqirig'idan qo'rqib ortga chekinar va o'z chavandozini ag'darishga harakat qilar edi, shu sababli jang maydonida suvoriylarning hujumkor shiddati to'xtatib qolinardi. **"Boburnoma"ga ishlangan miniatyuralarda o'sha davrdagi Hindiston armiyasida mavjud bo'lgan, jangovar fillarning tasvirlari berilgan.** Jangovar fillar, uning xartumidan tortib butun tanasi bo'ylab, odatda, turli hashamatli bezaklar bilan bezatilgan zirhlar bilan qoplanar edi. Zirhlar asosan teri, charm va temir plastinkalar bilan qoplangan bo'lgan. Bunday zirhlar hind manbalarida "gad'jagaxa", Sharq manbalarida esa "kajim" yoki "xajhul" deb nomlangan.

Jangning boshlanishi. 1526-yilning 12-aprelda Bobur qarorgohida barcha harbiy tayyorgarlik ishlari yakunlanadi, biroq Bobur nazdida, Sulton Ibrohim o'rdasida ikkilanish, urushga hozirlik ishlari sust kechayotgandek tuyuladi. Dushmanni faol harbiy harakatlarga undash maqsadida,

uning ortidan esa sultonning asosiy kuchlari Bobur qo'shining markaziy qismiga zarba berishni boshlaydilar. Biroq Boburning mudofaa chizig'iga yaqinlashganda, Sulton qo'shini kutilmaganda, to'xtab qoladi. Bobur vaqtini boy bermay, qo'shin sardorlariga dushmanga qarata baravariga to'p va zambaraklardan, kamon va miltiqlardan shiddatli ravishda o'q uzishni buyuradi. Zambarak to'plarining portlashlari butun jang maydonini olov va chang-to'zonga aylantirib yuboradi. Kamonchilarni olovli o'qlari ham dushman ustiga yomg'irdek yog'ila boshlaydi. Bostirib kelayotgan fillar, saflarini buzib, o'z askarlarini toptagan holda, tartibsiz ravishda ortga chekina boshlaydi. Sultonning o'ng va chap qanotlari harakatga kelib, hujumga o'tadi. Asosiy zarbar Boburning o'ng qanotiga tushadi.

Barong'orni mustahkamlash maqsadida, Bobur Abdulaziz mirohur boshchiligidagi xazira (*tarh*) qo'shinlarini safarbar qilishga majbur bo'ladi: *"Abdulaziznikim, tarhqa muayyan edi, burong'org'a ko'mak yiborildi"*.

Chap qanotlarda ham vaziyat yaxshi emas edi, uni ham ortida turgan markazning chap "qo'li"

esa qanotlarga ko'mak berib, dushmanning markaziy qismiga hujum qiladilar: *"Javong'ordin Mahdiy Xoja burunroq tegishti. Mahdiy Xojaning o'trusig'a bir favj bir fil bila keldi. Bular ham qalin o'q qo'yub, ul favjni yondurdilar. Javong'org'a ko'mak g'uldin Ahmadiy parvonachi va Turdibek Qo'chbek va Muhib Ali xalifani yiborildi. Burong'orda ham urush qoyim bo'ldi. Muhammad Ali ko'kaldosh va Shoh Mansur bartos va Yusuf Ali va Abdullog'a farmon bo'ldikim, g'ulning olida ro'baro'din yurub, urushqqa mashg'ul bo'ldilar"*.

Jang vaqtida Bobur o'z lashkarboshilariga aniq va tezkor buyruqlar berar, uning o'ziga ham ayni vaqtda, markaziy safda turib jang qilar edi. Temuriylar qo'shining xaziradan tortib, barcha qismlari urush maydonida dushman qarshiligini sindirishga, matonat va jasorat bilan jangga kirishgan edilar. Qamalda qolib ketgan hind qo'shini esa na olg'a siljib, qarshisidagi raqibni yengishga va na jang maydonidan qochishga imkon topa olardi: *"Burong'or, javong'or va g'ul va to'lg'ama g'animning girdo-girdini olib, shiba qo'yub, bajid urushqqa mashg'ul"*

qo'shin nobud bo'lgandi, omon qolganlari esa tevarak-atroflarga qochib ketishga erishadilar. Bu urushda Sulton Ibrohimning o'zi ham halok bo'lgan edi. Uning jasadi sultonning 5-6 minglik xos navkarlari orasidan topiladi.

"Tarixi salotini afg'oniy" asarining muallifi Ahmad Yodgoring xabar berishicha, Bobur Sulton Ibrohimning o'limidan xabar topib, uning jasadi yotgan joyga borib, boshini egib: **"Jasoringizga shon-sharaf bo'lsin, Ey Ibrohim!"**, – deb kuyungani, so'ngra uni podshohona sharaf bilan dafn qilishga buyrug'ini eslatadi.

"Tarix-i Dovudiy" va boshqa ayrim manbalarda Sulton Ibrohimning o'limi haqida turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, manbalarda Ibrohim Lo'diy jang maydonidan qochib, Jamna daryosida cho'kib ketgani, yoki Panipat jangidan keyin yana bir yil yashagani kabi turli xabarlar qoldirilgan. Biroq bu xabarlarining barchasi ishonchsizdir. **"Boburnoma"da keltirilishicha, haqiqatdan ham Sulton Ibrohim ushbu jangda halok bo'lgan edi, uning jasadi Boburning amiri Tohir Tabariy tomonidan aniqlanib, podshoh huzuriga keltirilgan edi.** Panipat jangidan so'ng sultonlik g'aznasidagi xazinalarning talon-toroj qilinishini oldini olish maqsadida, tezlikda Dehli va Agra ham egallanadi. Ayni shu davrda Gvalior hokimi mashhur "ko'hinur" olmosini Humoyunga taqdim etadi. 1526-yil 24-aprelda Boburning zafarli qo'shinlari poytaxt Dehli darvozasidan tananali kirib keladi. Bu yerda u Shayx Nizom avliyo va Xoja Qutbiddin mozarlarini ham ziyorat qiladi. 27-aprelda esa shaharning jome masjidlarida ustozlari bo'lmish Mavlon Mahmud va Shayx Mayn tomonidan Bobur nomiga xutba o'qilib, shukronalik namozi ado etiladi, mahalliy aholiga turli ehsanlar ulashiladi. Shuningdek, Bobur bu yerda o'z nomidan *"Al-Sulton al-a'zam val xoqon ul-mukarram Zahiriddin Muhammad Bobur podshohi Sulton g'oziy, holadollohu mulkahu va saltanahu"* yozuvlari tushirilgan tangalar ham zarb etadi. Bu Hindistonning fath etilishi va endilikda uning saltanati tarkibiga kiritilganligidan dalolat berardi.

Ibrohimshohning o'z kuchiga haddan tashqari ishonishi, manmanlik va tug'yon botqog'iga tushishi natijasida, raqibi bo'lmish Boburning kuch-qudratiga yetarli baho berolmay qoldi. Lekin asosiy sabab shubhasiz, Dehli sultonligida yuzaga kelgan siyosiy inqiroz, oliy hukmdor hokimiyatining zaiflashishi ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, albatta. Shunday bo'lsa ham Bobur hind armiyasiga, xususan, Sulton shaxsiyatiga baho berar ekan, agar xohlasa, Sulton Ibrohim yanada ham ko'proq askar yollashi mumkinligi, ammo ziqnaligi va mol-u davlatga berilganligi tufayli, hal qiluvchi jang oldidan o'z qo'shinini ko'paytirishga, unga kerakli mablag'lar ajratishga rozi bo'lmaganini ta'kidlaydi.

Aftidan, Temuriylar qo'shinining kamligi sabab shundoq ham ko'p sonli qo'shinni yollanma askarlar – "badhandiy"lar hisobiga yanada to'ldirishga, Sultonda zarurat tug'ilmagan ko'rinadi. Boburning o'zi ham


mazkur g'alabasini iste'dodi, shaxsiy mahorati va tajribasidan emas, balki kamtarona tarzda, *"Taqdirning unga ko'rsatgan inoyatidan"* deb biladi: *"Bu hol va bu quvvat bila tavakkul qilib, o'zbekdek yuz ming qari yog'iyni orqada qo'yub, Sulton Ibrohimdek qalin cherklik va vase mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk. Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi qilmay, mundoq zo'r g'animni mag'lub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o'zumizning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur"*.

Garchi Sulton Ibrohimning armiyasi son jihatdan ko'p va qudratli bo'lgan bo'lsa-da, biroq uning siyosatidan norozi bo'lgan lashkarboshilar ko'p edi, ular tez-tez itoatsizlik ko'rsatib, markaziy hokimiyatga bo'ysinishni istashmasdi. Tinimsiz urushlar oddiy xalq turmush hayotini yanada og'irlashtirib, ularning hukumatga qarshi norozilik qo'zg'olonlariga ham sabab bo'lar edi. Bularning bari, oxir-oqibat, saltanatning yemirilishiga, uning harbiy qudratiga putur yetkazmay qo'yimadi. Bu vaziyatda **Boburning Panipatdagi g'alabasi Shimoliy Hindistonda, Dehli sultonligining salkam 300 yillik tarixiga yakun yasab, Lo'diylar sulolasi hukmronligiga chek qo'ygan so'nggi zarba bo'ldi.**

Haqiqatdan ham Panipat jangi nafaqat Hindiston tarixida, balki Boburiylar hayotida ham o'ta muhim voqea bo'lgan edi. **Ushbu jang Boburning buyuk sarkarda sifatidagi iqtidorini yaqqol namoyon etdi va unga katta shuhrat keltirdi.** Uning son jihatdan juda katta dushman qo'shinini oz sonli lashkar bilan tor-mor qilgan jahon harbiy san'at tarixidan o'rin olgan. Bu jangda o'z davrining zamonaviy qurol-aslahalaridan, xususan, yangi o'tochar qurollar, artileriya va harbiy taktika san'atidan unumli foydalanilgan. **Ushbu jang tufayli Amir Temur va Temuriylarning jang san'atini yana bir bor Bobur misolida, butun dunyoga namoyon etishga xizmat qildi.** Panipat jangidan keyin ham Bobur yanada og'irroq bo'lgan janglarni boshidan kechiradi. Rona Sango boshchiligidagi Rajputlar konfederatsiyasiga qarshi navbatdagi urush 1527-yil 16-martda Agra shahridan 60 km g'arbda joylashgan Konva (*Kxanva*) shahri yaqinida yuz bergan edi. **Tarixda "Konva jangi" bilan mashhur bo'lgan mazkur jang ham Boburning to'liq g'alabasi bilan yakunlanadi.**

Boburning ushbu g'alabalari natijasida, butun Shimoliy Hindiston ustidan Temuriylar sulolasining nazorati o'rnatiladi, bu yerda uzil-kesil yangi hokimiyat o'rnatiladi va **Amir Temur asos solgan Temuriylar davlatining davomchisi sifatida, yangi buyuk imperiyaga – Boburiylar saltanatiga (1526–1857) asos soladi.**

Azizjon SHARIPOV, O'zRFA "Temuriylar tarixi" davlat muzeyi ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i



Bobur, bek va amirlarning maslahatiga ko'ra, vaqti-vaqti bilan uning pozitsiyalariga kichik-kichik guruhlarni jo'natib, hujum qilib ko'radi. Bu kamonchi guruhlar tunda ham faollik ko'rsatib, kutilmaganda dushman qarorgohida sarosima va vahima uyg'otishga harakat qiladi: *"Oz-oz kishimiz borib, doirasig'acha qalin kishilariga o'q qo'yarlari edi... Alar hech harakate va junbushe qilmaslar edi. Oxir ba'zi ... beklarning ra'yi bila amal qilib, ... to'rtbesh ming kishini shabixung'a yiborduk. ... Tong otib, yoruq bo'lg'uncha g'animning doirasining yaqinida edilar, g'anim kishisi naqoralarini choldurub, fillar bila yasab chiqtilar"*.

1526-yil 21-aprelda, erta tongdan har ikkala tomon qo'shinlari Panipat maydonida jangga tayyor holatda saf tortib turardi. **Ushbu tarixiy jang, karnay va burg'ular sadosi ostida, Bobur istaganidek, Sulton Ibrohim qo'shining harakati bilan boshlanadi.** Son jihatidan Bobur qo'shinidan 10 barobarlik ustunga ega bo'lgan hind qo'shining eng oldingi saflarida jangovar fillar (*"fil chenarlar"*) markazga qarab harakatlanib kela boshlaydilar,

yordamida mustahkamlashga to'g'ri keladi. Shu tariqa, **Bobur Sulton Ibrohim hujumini qaytarishga muvaffaq bo'ladi va endilikda tashabbusni o'z qo'lga olib, o'zi ham tezkor qarshi hujumga o'tishni boshlaydi.** To'lg'ama (*o'rab olish amaliyoti*)ga mas'ul bo'lgan har ikki qanotning qunbuli tezlikda dushmanni orqa tomoniga o'tib, o'rab oladilar va kuchli zarbar bilan dushmanni markazga, ya'ni zambaraklar va miltiqchilar ta'sir doirasi tomon siqib kela boshlaydilar: *"Farmon bo'ldikim, to'lg'amag'a tayin bo'lg'on kishi o'ng qo'ldin, so'l qo'ldin g'animning orqasig'a yevrulub, o'q qo'yub, urushqqa mashg'ul bo'lg'aylar... To'lg'ama kishisi orqasig'a yevrulub, o'q qo'ya kirishtilar... Mustafo to'pchi ham g'ulning so'l qo'ldin araba ustidagi zarbanlar bila yaxshi zarbanlar otti"*.

Boburning o'ng va chap qanotlari – barong'or va javong'or qo'shinlari ham dushman qanotlariga zarba bera boshlaydilar: *"Burong'or, javong'or ham yurub, g'anim bila tegishgaylar"*.

Chin Temur Sulton va Xoja Xalifa boshchiligidagi markazning o'ng va chap "qo'li"lari

bo'ldilar. Bir-ikki qatla javong'or, burong'or sari qisqa-qisqa hamalalar qildilar. Bizning kishi o'q qo'yub, shiba zarbi bila yana g'ulig'a tiqtilar".

Sulton Ibrohimning qo'shinlarni boshqarish borasidagi tajribasizligi tufayli, uning o'ng va chap qanotlari asosiy markaz qo'shinlari bilan aralashib ketadi.

Jangchilarning tartibsiz harakatini jang maydonida tizimli boshqarish butkul izdan chiqqan edi. *"G'animning o'ng qo'li va so'l qo'li bori bir yerda yig'ilib, andoq tiqilish bo'ldikim, ne ilgari kela oldilar, ne qochg'ali yo'l topa oldilar"*, – deb eslaydi Bobur.

Darhaqiqat, Boburning o'ng qanot, chap qanot, markaz va to'lg'ama qismlari dushmanni har tomondan o'rab olib, borgan sari markazga siqib borar, to'pchi va miltiqchilar guruhi esa ular ustiga tinimsiz tosh, olov va o'qlar yog'dirardi. **Shu tariqa jang taqdiri Temuriylar foydasiga hal qilingan edi. Tongda boshlangan urush tushgacha davom etadi va oxir-oqibat Boburning yaqqol g'alabasi bilan yakun topadi.** Panipat maydonida Boburning taxmincha, dushmanning 10-15 ming qo'shini o'ladi, biroq keyinroq ma'lum bo'ladiki, 40-50 ming

Bugungi kunda tabiiy resurslardan unumli va oqilona foydalanish, tobora kamayib borayotgan zaxiralarni asrab-avaylash masalasi o'ziga xos yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, muqobilsiz hamda qayta tiklanmaydigan resurslar sarfida ehtiyotkorlikni ta'minlashning ahamiyati ortmoqda.



TABIATNI ASRASAK, KELAJAKNI ASRAGAN BO'LAMIZ

Bilamizki, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosi mintaqamizda kun sayin globallashtirib borayotgan masalalardan biridir. Sohaga yangi tejamkor texnologiyalarni jalb etgan holda, tubdan modernizatsiyalash bugungi kunning kechiktirib bo'lmas jarayoniga aylandi. Buning uchun birinchi navbatda, uzoqni ko'zlab

amalga oshiriladigan va sohadagi barcha jihatlarni o'zida qamraydigan istiqbolli kompleks dasturga ehtiyoj sezilmoqda.

Dunyoda so'nggi yillarda havo haroratining keskin ko'tarilib ketishi va Ozon qatlaminin yemirilishi tufayli, turli tabiiy ofatlarning ortib borishi kuzatilmoqda. Buni kimdir zavod va fabrikalarning kengayishi, harakatlanayotgan texnikalar, koinotga uchirilayotgan sun'iy yo'ldoshlarning ta'siri, desa, yana kimdir insoniyatning ko'payishi natijasida oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj ortib, yer usti va yer osti boyliklari hamda tabiat resurslaridan tartibsiz foydalanish bilan bog'layapti.

Ekologik madaniyatni oshirish, ekologiyaga nisbatan insonlarning dunyoqarashini o'zgartirish haqida so'z borganda, ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat, ekologik dunyoqarash bir nechta omillar natijasi o'laroq shakllanadi. Jumladan, tabiatga muhabbat, u haqdagi bilim va tasavvurlar, ko'nikmalar, ekologik tarbiya, qadriyat hamda an'analar ekologik madaniyat va ekologik dunyoqarashning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bugungi global ekologik muammolar insoniyatni bir bo'g'ma ilondek qamrab olgan paytda insonlarda ekologik ong va ekologik madaniyatni, dunyoqarashni shakllantirish va ularda atrof muhitga nisbatan ratsional yondashuv ko'nikmasini hosil qilish masalasi ulkan ahamiyat kasb eta boshladi, deb hisoblash joizdir.

Ma'lumki, global iqlim o'zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi, maishiy va sanoat chiqindilarining tobora ortib borishi, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, bio xilma-xillikning yo'qolishi natijasida dunyoda ekologik vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Bunday sharoitda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan

bir qator qonunlar, qonunosti hujjatlari, davlat dasturlarining qabul qilinishi va ularning ijrosi bo'yicha izchil ishlar olib borilayotgani, bu ishlarda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishi beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada yurtimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirish hamda kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlash, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashga qaratilgan normalar oliy darajada o'z aksini topgan.

Shunday bo'lsa-da, mamlakatimiz hududlarida suv resurslaridan nooqilona va samarasiz foydalanish oqibatida cho'llanishlar oshib boryapti. Sababi insonlarda ekologik madaniyat bilimining kamligi pand beryapti. Natijada qishloq xo'jaligi sohasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun suvdan keragidan ortiq foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Misol uchun, 1 kilogramm kartoshka yetishtirish uchun 500 litrdan ortiq suv sarflayapti. Tabiiy savol tug'iladi: 1 litr suvni narxi o'rtacha 5 ming so'mni tashkil etsa, mahsulot uchun sarflanayotgan resurslarimiz tan narxi 500 marotaba ko'p bo'layotganini nahotki sezmayapmiz? Bu borada zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalarini sohaga joriy etish eng oqilona yechimdir. Ya'ni tomchilatib, yomg'irlatib va ildiz ostilatib sug'orish texnologiyalaridan foydalanish ayni muddao bo'ladi.

Jazirama kunlarda hammamiz global isish haqida ko'p o'ylaymiz, kelajak haqida qayg'uramiz. Biroq ob-havoning so'nggi davrlardagi bunday injiqliklarini umumiy qilib "iqlim o'zgarishi" deb atash to'g'ri bo'ladi. Zero ob-havo nafaqat yoz kunlarida, balki qishda ham o'z injiqliklarini ko'rsatmoqda. Xo'sh, nima sababdan iqlim

o'zgarishi muammosi yildan yilga dolzarblashib bormoqda? Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun nimalar qilish kerak?

Birinchi navbatda, ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Boisi tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlarning ekilishi hududlardagi mikroiklimni yumshatishga sabab bo'ladi. Ayniqsa, shahar va avtomobil yo'llarining chetida yashil hududlarni kengaytirish zararli moddalar miqdorini kamayishiga va Ozon qatlami kengayishining oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchi navbatda, suvdan oqilona foydalanishga alohida ahamiyat berish lozim. Chunki tomchilatib sug'orishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish ham o'z navbatida iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun muhim omildir.


Uchinchi navbatda, issiqxona gazlarini kamaytirish kerak. Buning uchun birinchi navbatda, ishlab chiqarish korxonalarini, IES va boshqa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi tashkilotlarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga tashlanayotgan issiqxona gazlarining miqdorini kamaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslardan o'ylamasdan foydalanish, founa va flora dunyosiga vahshiylarcha munosabatda bo'lganimiz tufayli bugun ekologiyamiz ayanchli ahvolda kelib qoldi. Uni saqlab qolishga haliyam kech emas. Buning uchun tabiatga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirsak, tabiiy resurslarni isrof qilishni to'xtatsak, kifoya. Ana shunda o'zimizdan kelajak bunyodkorlariga sof tabiatni qoldirgan bo'lamiz.

**Umirzak KAZAKOV,
 Otabek RAHIMBAYEV,
 Toshkent davlat texnika
 universiteti o'qituvchilari**

TANLOV

SOG'LOM TASHABBUSKORLIK MUHITI OSTIDA



Armiyada qo'shinlarning axloqiy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi uzluksiz tashkil etiladi.

Xoh harbiy qism hududida, xoh dala-o'quv maydonida bo'lsin harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi bilan shug'ullanishi uchun sharoitlar yaratib kelinadi.

Zotan, yurt himoyachilarining ruhiy jarohat keltiruvchi omil va sharoitlarni yengib o'tishlari uchun hamda ularni ruhan va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, o'quv-jangovar vazifalarni bajarish jarayonida kuchli ruhiy-emotsional zo'riqlashning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, albatta zamon talablariga hamohang bo'lishni talab etadi. Oldingi andazalarga asosan yaratilgan va bugungi kun talablariga javob bermaydigan madaniy-hordiq olish va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik o'quv-moddiy bazalari o'zining samarali ta'sirchanlik ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Shu bois Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan ushbu yo'nalishga jiddiy e'tibor qaratilib, o'quv-moddiy bazalarni takomillashtirish

va zamonaviylashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Soha mutaxassislari o'rtasida sog'lom tashabbuskorlik muhitini shakllantirish orqali xizmat faoliyati davomida foydalanishga mo'ljallangan zamonaviy ko'rinishdagi mobil "Eng yaxshi dala ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'uloti jamlanmasi" va "Eng yaxshi madaniy-hordiq olish jamlanmasi" ko'rik-tanlovlari bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar in'ikosidir. Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda mazkur tanlovlarning dastlabki bosqichi yuksak saviyada tashkil etildi. Unda o'nga yaqin ishlanmalar taqdim etilib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan taqdimotlar ko'rik-tanlovning final bosqichiga yo'llanma oldi.

Eng muhimi, o'quv-jangovar vazifalarni bajarish jarayonida harbiy xizmatchilarda kuchli ruhiy-emotsional zo'riqlashning oldini olish, o'z vaqtida madaniy hordiq olishlari uchun sharoit yaratish hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarining samaradorligiga erishish maqsadida harbiy okrug qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlarining faoliyatiga doir o'quv-moddiy bazani yanada takomillashtirish, ularning yagona ko'rinishini yaratish va qo'shinlarda keng ravishda tatbiq etish ishlari izchil davom etmoqda.

**Podpolkovnik Azizjon RAVSHANOV,
 Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
 bo'lim boshlig'i**

Manzilsiz



Bu dunyoda odamzod uchun ota-ona mehri, muhabbatidan ham haqiqiy, samimiy va azizroq tuyg'u bo'lmasa kerak. Zero farzand ota-onasining mehridan qonib unib-o'sadi, ulg'ayadi, ularning muhabbati bilan hayotda kim uchundir kerakli ekanligini his qilib yashaydi, jamiyatda o'rin topadi. Shuning uchun ham donishmandlar "Beqaror dunyoni mehr-muhabbat muvozanatda ushlab turadi", deya lutf qilishgandir, balki. Afsuski, oramizda ota-ona mehrini ko'rmagan, muhabbatini his qilmagan murg'ak qalblar ham borki, ular bilan ko'rishganda, so'zlashganda yuragingiz chok-chokidan so'kilayotganini his qilish juda og'riqli.

Bu voqea bundan to'rt oy oldin ro'y bergandi. O'shanda akademiya rahbariyati tashabbusi bilan Chilonzor tumanidagi 22-sonli Mehribonlik uyiga bordim. Shu kuni Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan bir davrada o'tirib suhbatlashdik, ularning orzu-istaklari bilan qiziqdim. O'z navbatida, ular ham mening kursant ekanligimni bilib, samimiy suhbatga kirishib ketishdi. Savol-javoblar boshlanib ketdi. Ularga qay tariqa armiyaga kirib kelganim, akademiya haqida, shu kungacha erishgan yutuqlarim xususida so'zlab berdim. Suhbat asnosida "Kelajakda qaysi kasbni egasi bo'lmoqchisiz?" deya

umumiy savol berdim. Kimdir shifokor, yana kimdir tadbirkor, quruvchi, arxitektor bo'lmoqchiligini aytdi.

Davrada o'tirgan bir bola savolga shunday javob berdiki, oradan qancha vaqt o'tishiga qaramay uning aytgan mungli so'zlari kechagidek yodimda:

– Men kelajakda qaysi kasbni tanlashimdan qat'i nazar, bu hayotda yaxshi ota, bo'lmoqchiman. Ya'ni har qanday qiyinchilik, muammo bo'lishidan qat'i nazar oilasi, farzandini tashlab, otalik mehridan, farzandlarini beg'ubor bolaligidan ayirmaydigan chin ma'noda bolalari uchun hamma narsaga tayyor ota bo'lmoqchiman.

Meni bu Mehribonlik uyiga bir yoshimda tashlab ketishgan, hozir yoshim o'n birda. O'n yildan buyon davlatimiz himoyasida unib-o'syapman. Kelajakda mana shu e'tibor va g'amxo'rlikka javoban davlatimizning tinchligi, osoyishtaligi, xavfsizligini saqlash yo'lida xizmat qilmoqchiman. Ya'ni men ham sizdek harbiy xizmatchi bo'lmoqchiman. Bu ezgu yo'lida har qanday qiyinchilik bo'lsa mardonavor yengaman! Musaffo osmonimiz uchun, beg'ubor bolalik uchun kerak bo'lsa jonimni beraman!

U so'zlarini yakunlashi bilan xona gulduros qarsaklar sadosiga to'ldi. Samimiy suhbatdan so'ng tarbiyalanuvchilar hamrohligida Mehribonlik uyida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdim. E'tiborimni tortgan yana bir jihat bu makonda tarbiyalanayotgan murg'ak qalb sohiblari orasida iste'dodli, qobiliyatli yoshlar ham talaygina ekan. Ularning qator respublika ko'rik-tanlovlari qo'lga kiritgan yutuqlari so'zim isboti bo'ladi.

Shu kuni bolajonlar bilan xayrlashib ketayotgan vaqtimda qora qosh-ko'zli, oq yuzli, sakkiz yosh chamasidagi qizaloq yonimga yugurib kelib, qo'limga bir maktub tutqazdi va "iltimos aka, shu maktubni onamga berib qo'ying", dedi. Qizchani iltimosini rad etolmadim. Xo'p, dedim-u, maktubni ustki qismiga ko'z tashladim. Maktubda na manzil, na biror ism yozilgandi. Maktubni qizaloqni ruxsati bilan ochib o'qidim va bir necha daqiqajim qotdim. Ko'zim ko'ryapti, qulog'imga tarbiyachi opaning gaplari chalinyapti. Lekin ruhim tanamdamsdi. Qalbim larzaga keldi. Lekin bolalarni oldida yig'lay olmadim. O'zimni zo'rg'a tutdim.

Mana o'sha maktub:
"Assalomu alaykum, onajonim. Sog'-omonmisiz? Sizni ko'rmaganimga ham ancha

bo'ldi. Ha, esladim, "Mana shu yerda turib turgin", deb tashlab ketganingizga roppa-rosa besh yil bo'libdi. Bu yillar davomida sizni qanchalik sog'inganimni bilsangiz edi. Sizni eslamagan kunim bo'lmadi.

Oyi, sizsizlikka ko'nikishim oson bo'lmadi. Meni tashlab ketgan paytlaringiz kechalari yig'lab chiqqanimdan yostig'im ho'l bo'lib ketardi. Kunduzlari vaqt o'tmasdi, go'yo. Rosa qiynaldim oyijon! Nahotki siz meni sog'inmaysiz, yaxshi ko'rmaysiz?! Axir yomon oyi emasdingiz-ku?!

Bu yil maktabda 2-sinfda o'qiyapman. Sizga o'z qo'lim bilan yozayotgan ilk maktubim bu oyijon. Meni bu yerdan olib keting, iltimos. Yaxshi qiz bo'lishga va'da beraman. Hamma aytganlarinigizni qilaman, xafa qilmayman sizni. Hozir sizning mehringizga muhtojman. Bag'ringizga bosh qo'yib, yuzingizga uzoq-uzoq tikilib to'ysam deyman, oyi. Sizni rosa ko'rgim kelyapti. "Bolajonim!" degan so'zingizni yana bir bor eshityadim. Iltimos onajonim meni o'zingiz bilan bu yerdan olib keting".

Afsuski, Mehribonlik uyi tarbiyachisi Nigora opaning aytishicha, qizaloqning onasi vafot etganiga yetti oy bo'lgan ekan.

Maktubni hamon yonimda saqlayman. Uni qayta-qayta o'qiyman. Shu lahzalarda butun dunyo farzandlariga yaxshiliklar tilayman. Hech bir bola yetim bo'lmasin! Ota-onalar farzand uvolidan, ularning tirik yetim qilishdan qo'rqishsin, deb niyat qilaman. Toki bolalarning beg'ubor qalbi darz ketmasin, hech qachon g'am ko'rmasin.

Nodirjon ORTIQOV,
Qurolli Kuchlari
akademiyasi
III bosqich kursanti

AVLODLAR UCHRASHUVI

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida mudofaa vaziri maslahatchisi – vazirlik Faxriylar ishlari bo'yicha kengash raisi Abubakr Navro'zov, Mudofaa vazirligi ishlar boshqarmasi boshlig'i polkovnik Salaymaxsum Sharipov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Faxriylar ishlari bo'yicha kengashlari raisi va a'zolari hamda harbiy xizmatchilar ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Tadbiridan so'z olgan A. Navro'zov buyuk ajdodlarimiz Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk olim-u fuzalolarimizning hayoti va ilmga qo'shgan hissasi, Temur Malik, Spitamen, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberding

sarkardalik faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlarni o'rtoqlashdi. Ularning vatanparvarligi, jasorati va fidoyiligi barchaga o'rnak ekanligini e'tirof etdi.

Tadbir samimiy ruhda o'tdi. Qizg'in suhbat davomida faxriylar xizmat yillaridagi xotiralari haqida ham so'zlab berishdi.

FAXRIYLAR bilan BIR KUN



Shu kuni Faxriylar ishlari bo'yicha markaziy kengash raisi ishtirokida Nukusda Ichki ishlar vazirligi "Temurbeklar maktabi" va Urganchda Mudofaa vazirligi "Jaloliddin Manguberdi" harbiy-akademik litseylari, Urganch shahri 1-son ixtisoslashtirilgan maktab internati o'quvchilari, Urganch

davlat universiteti talabalari bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

Shuningdek, faxriylar "Yangiariq" umumqo'shin dala-o'quv maydonida yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham tanishdi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

Hur Vatanning botir o'g'loni



*Sizni unutmaymiz, to zamin mangu,
 To quyosh nurlari yo'ldoshdir bizga.
 Vatan quchog'iga baxsh etib yog'du,
 Yasharsiz har avlod — har o'g'il-qizda.*

Ne ajabki, umrini Vatan ozodligi — hurligi va tinchligiga baxshida etgan mard insonlar siyмосi vaqt o'lchoviga bo'ysunmay, yurt deb yongan, erk deya qalqigan millat ko'ksida yashayveradi. Jasorat manguiligini, vatanparvarlik tuyg'usini yuraklarga muhrlayveradi.

Ne ajabki, bunday jo'mardlarning hayotini, jasoratini qancha tavsif-u talqin etmang, she'r-u dostonlarda kuylamang, sayqallanib, ohorlanib boraveradi. Bir so'z bilan aytganda, barhayotlik qo'shig'ini kuylayveradi.

Mana shunday o'chmas xotiraga musharraf botir farzandlardan biri "Jasorat" medali sohibi, serjant G'ulom Husanov edi.

G'ulomjon Vatan hurligi va tinchligini asrash yo'lida jon taslim etganida endigina 20 yoshda edi. Qarangki, yigirma yoshni qarshilagan hayotga chanchoq yigit, shu yoshga qadar muddatli harbiy xizmatdan so'ng kontrakt bo'yicha maxsus guruh posbonlari safidan joy olib, xizmat sinovlarida toblanib, Sariosiyodagi jangovar harakatlarda ishtirok etib, yurt tinchligi va mustaqilligini himoya qilishda qahramonlik ko'rsatib, nomini mangulikka muhrlab ulgurdi. Buni yonib yashash, desa bo'ladi.

HAYOTGA BIR KELDI-YU, IZ QOLDIRIB KETDI

Men qahramon yigit ulg'aygan xonadonda ancha yillar avval bo'lganman. G'ulomjonning ota-onasi Chori aka va Ro'zixol opa bilan dildan suhbatlashgandik. Ular ayni damda ulug' yoshni qarshilayotgan mo'tabar insonlar. Bu galgi suhbatimizda ham ularning sevimli farzandlari — G'ulomjon xotirasini yodga oldik.

— G'ulomjon yolg'iz o'g'limiz edi. Bizga, ikki singlisiga juda mehribon bo'lib, hurmatimizni joyiga qo'yardi, — deydi Chori aka Husanov dilbandi haqida so'z yuritarkan. — Maktabda a'lo baholarga o'qigan. Umumta'lim maktabini bitirgach, texnikumga kirish imtihonlarida eng yuqori

ball olgani hamon esimda. Izlanuvchan, intiluvchanligi sabab harbiy xizmatda ham tez o'rin topgan, komandirlari e'tiboriga tushgan, guruh komandirining o'rinbosari bo'lgan.

O'g'lim bizni erta tashlab ketgan bo'lsa-da, undan rozimiz. Chunki u hayotga bir keldi-yu, o'zidan unutilmas iz qoldirib ketdi. Hayotni, dunyo yangiliklarini kuzatib, qanchadan qancha yosh yigitlarni terrorchi oqimlarga qo'shilib, giyohvandlikka berilib, umri xazon bo'lib, kafansiz, qabrsiz yo'q bo'lib ketayotganing guvohi bo'lyapmiz. Atrofimizda 80 yil, 100 yil yashayotganlar ham yo'q emas. Ammo ularning sizlar kabi e'tiborli yo'qlab kelguvchilari yo'q. G'ulomjon esa Vatanimiz hurligini asrashga qalqon bo'lgan dovyurak posbon sifatida elimiz xotirasida, do'st-u yorlari, safdoshlari, harbiylarimiz qalbida yashashiga ishonaman.

O'g'limning orqasidan iz — farzandlar qolmadi. Lekin qizlarim Dilafruz va Dilshodaxon bilan bilimdon va zukko nabiralar hamda evara ko'rdik. Bitta nevaram G'ulomjonning xuddi o'zi.

— To'g'ri, Alloh bizni yana bir G'ulomjon bilan siyladi, — suhbatga qo'shiladi qahramon o'g'lonning validayi muhtaramasi Ro'zixol opa. — Farzand ayriligi ona uchun juda og'ir. Ammo atrofingdagi yaqinlarning, yaxshi insonlar sabab g'amlar ortga chekinadi. Shu bilan birga, hayot o'zi olganining o'rnini o'zi to'ldirarkan. Aytmoqchimanki, G'ulomjonni tuproqqa qo'yganimizdan so'ng oradan yetti yil o'tib, kichik qizimiz Dilshodaxon aynan akasi olamdan o'tgan kunda o'g'il farzandli bo'ldi. Ismini G'ulommuhammad qo'ydik. Nabiramız shu qadar tog'asiga o'xshaydiki, hayratda qolasiz. U tog'asi o'qigan Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qidi. Hozirda shahardagi harbiy akademik litseyda tahsil olyapti. Orzusi Vatan himoyachisi bo'lish.

TOG'ASINING BO'LAJAK IZDOSHI

Yillar oqar daryo deydi. Men Husanovlar xonadonida bo'lganimda bobo va buvisining dardiga darmon bo'lgan G'ulommuhammad boshlang'ich sinf o'quvchisi edi. Kattalarning so'ziga zukkolik ila quloq tutib o'tirgan bolakay bergan savollarimga dona-dona javob qaytargani hamon yodimda:

- G'ulommuhammad, nechanchi sinfda o'qiysan?
- Ikkinchi sinfda.
- Baholaring qanday?
- Faqat "besh".
- Qoyil, katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan?
- Avval askar bo'laman, keyin polkovnik...

Barchamizning yuzimizga beixtiyor tabassum yugurgandi o'shanda. Mittigina bolakayning Vatan himoyachisi bo'lish istagi bugun uni ulug' yo'l ostonasiga boshlabdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litsey o'quvchisi bo'lish nasib etibdi unga. Uning yuksak orzu tomon intilishiga tog'asi G'ulomjonning harbiy xizmatchi bo'lgani, u o'qigan maktabda buyusti qad rostlagani, xotirasi katta-yu



kichikning yuragidan joy olgani sabab bo'lgani aniq.

BOLAGINAMNING SEVGAN QIZI BOR EDI

— Olamdan o'tishidan uch kun avval uyga kelib bir qancha suratlar tashlab ketgandi, — suhbatni davom ettiradi onaizori Ro'zixol opa. — G'ulomjonning vafotidan keyin ularni xotira burchagiga qo'ydik. Rasmlar o'g'limning so'nggi kunlarini eslatib turadi. O'sha kelganida biz bilan bir oz gaplashib o'tirdi. Men darrov oshga unnamdim. "Onajon, palov tayyor bo'lguncha yetib kelaman" dedi-yu, tashqariga shoshildi. Menga aytmagan bo'lsa-da, yoqtirgan qizi bilan uchrashuvga ketayotganligini ona yuragi bilan sezdim. Ammo o'sha kuni bilishimcha u bilan ko'risha olmagan ekan. Men, o'sha Dilafruzxon ismli qizdan, uning onasidan cheksiz minnatdorman. Negaki, G'ulomjondan ayrilganimizdan so'ng o'g'limning hamma ma'rakalariga keldi, oldimizda turib ruhan tayanch bo'ldi. Xotira kunlarida esa bizdan avval borib qabriga gul qo'yardi. Nasib etganida uni, albatta kelin qilgan bo'lardim, ilohim baxtini topgani chin bo'lsin.

Ha, G'ulomjon aynan o't-olov yoshda sevdi, sevildi, yorqin xotirasini go'zal qiz qalbiga muhrlab ketdi. Ayni damda uning o'g'ilchasi ismi G'ulomjon bo'lsa ajabmas.

SERJANT G'ULOMJON HUSANOV BILAN BOG'LIQ XOTIRALAR

G'ulomjonning jangovar do'sti serjant Azam SHARIPOV:

— Men do'stim G'ulomjon bilan muddatli harbiy xizmatdan boshlab so'nggi kunigacha birga bo'ldim. 2000-yilning 18-avgust kuni aslo yodimdan ko'tarilmaydi. Bo'linmamiz zimmasiga mamlakatimiz janubiy sarhadlaridan ona zaminimizga qora niyatda suqilib kirgan xalqaro terrorchilar joylashgan hududni aniqlash va yo'q qilish vazifasi yuklatildi. Guruh komandirining o'rinbosari bo'lgan

serjant Husanov barchamizni jangovar topshiriqni professionallarga xos bajarishga da'vat etdi va barchaga o'rnak bo'lib, mardonavor harakat qildi. Ma'lum vaqt o'tib, biz bosqinchilar bilan to'qnashdik. Orada jang boshlandi, mana shu qaqshatqich olishuvda G'ulomjon yaralandi... Men u bilan yelkama-yelka turib xizmat qilganimdan faxrlanaman. Uning o'chmas xotirasi doim biz bilan.

Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabi direktorining ma'naviy ishlar bo'yicha o'rinbosari Mohira CHORIYeva:

— Maktabimizga "Jasorat" medali sohibi G'ulomjon Husanovning buyusti o'rnatilib, xotira burchagi qilinganiga besh yildan oshdi. Mana shu yillar davomida qahramon yigit xotirasi bilan bog'liq juda ko'p ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, serjant Husanov xizmat qilgan harbiy qism, mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining viloyat va shahar bo'limi, Surxondaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmasi hamda Termiz shahar bo'limi, mahalla fuqarolar kengashi, iste'fodagi faxriy harbiylar va hokimiyat vakillari bilan hamkorlikda, ota-onasi va yaqinlari ishtirokida xotira tadbirlari, uchrashuvlar o'tkazib turamiz. Shubhasizki, bunday qahramon o'g'lonlarimiz xotirasi doim barhayot!

Darhaqiqat, yillar ortda qoladi, davrlar o'tadi, ona diyorimiz mustaqillik quchog'ida gullab-yashnayveradi, dunyo bo'ylab yuksakligini namoyon etaveradi. Mamlakatimizni taraqqiy ettirish yo'lidagi minglab insonlarning zahmati mehnati balki unutilar, ammo uning ozodligi, mustaqilligini asrash yo'lida fido etilgan umrlar, baxshida etilgan jonlar — qahramonlar yodi aslo unutilmaydi. Ular barhayotlik qasrining botir o'g'lonlaridir.

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»

Toshbuvi malim va yordamchisi



Bugun o'qishning ilk kuni. Toshbuvi malim saharmardondan maktabga keldi. Atrofni supurib-sidirdi. Kecha kechqurun yo'lak chetlariga ekilgan qashqargul va rayhonlarga chelakda tashib, suv quygan edi. Tonggi quyoshda yashnab ketibdi. Kayfiyati ko'tarildi. Darsliklarni ham kecha keltirib qo'ydi.

Maktab oldi ayvon ikki xonadan iborat. Uch-to'rtta kichik qishloq bolalariga katta maktab olislik qilgani uchun boshlang'ich sinflar uchun hashar qilib shu maktab qurib berildi. Maydonchani malimning eri Keldiyor shaharda yashayotgan o'g'li bilan qurishdi. Chekkaroqda qizaloqlar uchun halinchakni ham o'g'li keltirib berdi. Keldiyor yuk mashinasi haydaydi. Maktab uchun kerakli narsalarni katta shahardan o'zi xarid qildi. Albatta, xotini Toshbuvining qistovi bilan. Eshakda qatnaydigan bolalarni ham unutmadilar. Chekkaroqda usti yopiq joy tayyorlashdi. Yog'in-sochinli kunlar bor. O'zlarining to'rt bolasi ham uchirma bo'ldi. Eng kichik qizi xorijda onasi kabi kichikintoylarga dars beradi. Uning ham bu kichik maktabga anchagina hissasi bor. Maydoncha uning g'oyasi asli.

Toshbuvi institutni bitirib, yo'llanma bilan qishloq maktabiga kelganida bu yerlarda qolib ketishni xayoliga ham keltirmagan edi. Keldiyor uni ilk kez ko'rgan kunni eslashni yoqtiradi. Uning aytishicha, katta qizil jomadon yonida chumchuqday qizni dastlab ko'rmagan emish. Katta yo'l yoqasida jomadon nima qiladi, deb hayron bo'lganidan mashinasini to'xtatibdi. Bolalari uni har gal kula-kula eshitadilar. O'sha lahzada har ikkovlarining ham ko'zlarida o'sha olis yoshlik otashi yallig'langandek ko'rinadi. Aslida qiz chumchuqdek kichik emas, baland bo'yli, qaddi-qomati kelishgan, yuzi sutga chayilgandek oppoq, ko'zleri shahlo edi. Katta qizil jomadon hozir ham bor, eski daftarlar saqlanadi. O'shanda qiz yolg'iz emas edi, tuman maorif bo'limining xodimi unga hamrohlik qilayotgandi. Keldiyor qiz tayinlangan maktab yaqinida yashashini bilib, Toshbuvini unga topshirdi-yu, qutulgandek haydovchi yigitga qayta-qayta rahmat aytib, ortiga burildi. Uni ham tushunsa bo'ladi, bir amallab qishloqqa yetib olganingdan keyin qaytish muammo. Ulov yo'q edi.

O'sha kuni Keldiyor ota-onasini ang-tang qoldirib, qizni to'g'ri uylariga olib keldi. Bir oyga bormasdan to'y ham bo'lib o'tdi. Toshbuvi shahardan nihoyatda olis bu qishloqni yaxshi ko'rib qoldi. Keldiyor uning ortida tog' kabi turardi. Tosh konida yuk mashinasi qancha foyda keltirgani noma'lum, ammo maktab ishiga ko'p foydasi tegdi. Ilgari maktab bilan ishi yo'q edi. Hayotiga Toshbuvi kirib kelganidan keyin maktab tashvishlarini ham ko'tara boshladi. Chunki u yerda uning Toshbuvisi ishlaydi. Bolalar Toshbuvi malimni qanchalik sevsalar, Keldi buvalarini ham undan kam sevmasdilar. U bolalar uchun qachon Keldi buvaga aylanganini ham sezmay qoldi.

Toshbuvi ayvondagi katta toshoynaga qarab, kumushdek sochlarini to'g'riladi va pastga tushib bolalarning yo'lga ko'z tikdi. Uzoqdan kelayotgan yuk mashinasini ko'rib jilmaydi. Eri olis qishloqlardan qatnaydigan kichikintoylarni olib kelyapti. Mashina to'xtagach, muallima unga qarab yurdi. Erkak qizaloqlarni birin-ketin tushirdi. Oppoq kapalakdek qizchalar o'zlarini Toshbuvi malim quchog'iga otdilar. Ayol har birini suyib-erkaladi, chug'urflashib eshak mingan o'g'il bolalar ham kelib qoldi. Aslida qizchalarning ham eshagi bor. Keldiyor ba'zan ishidan ortib, ularni shunaqa erkalab turadi.

Muallimning hammasi bo'lib o'n beshta o'quvchisi bor. Uchtasi ikkinchi sinf, qolganlari uchinchi sinf. Darsliklarni tarqatayotgan muallima o'quvchisi Zilolaning yuviqsiz patila sochlari, o'tgan yilgi kichrayib qolgan koftasiga bilintirmay qarab qo'ydi. Yoz o'rtalarida to'rt yoshli ukasi nobud bo'lgandi. Ota-onasi haliyam o'zlariga kelolmaganga o'xshaydi, qizcha qarovsiz qolibdi, ozib ham ketibdi, ko'zchalarida ham allaqanday mung cho'kkan, sevinch yo'q... Bechora qizaloq. Toshbuvining qizaloqqa bolasi kabi yuragi achishdi.

Darslar shu qadar tez kechdiki. Ayol ikkita kitobni ataylab olib, Zilolani yoniga chaqirdi:

– Menga yordamlashasanmi? Bularni uyga olib ketishim kerak. Darsingni qilishga o'zim yordamlashaman. Uyingga Keldi buvang olib borib qo'yadi. Ayangga dugonalarim aytib qo'yishadi.

– Maalim, biz ham boraylik, – qizaloqlar biri qo'yib, biri chug'urlyab boshladi.

– Sizlar boshqa kuni borasizlar, – deya muallima ularni tinchitib xayrlashdi.

Yo'l-yo'lakay gaplashib keldilar. Toshbuvi malim uzoq bolalarini ko'rgan boribdi. Ikkitasi juda uzoqlarda yashamish. Ikkitasi esa shaharda. Yaxshi o'qisa, Zilola ham uning qizi kabi dunyoning ulkan shaharlarini ko'rishi mumkin ekan. Uni tinglayotgan qizaloqning ko'zlarida bir zum umid uchqunlangandek bo'ldi va tezlikda so'ndi. Uyga yaqinlashganlarida qizaloq chopqillab borib darvozaning kichik tavaqasini ochdi. Qo'lidagilarni so'riga tashlab qafasda chug'urflashayotgan qushlar tomon chopdi.

Toshbuvi ertalab yarim tayyor qilib ketgan ovqatiga unnadi. Masalliqilarni solib tobiga keltirgach, olovini pastlab qo'ydi. Qizaloqni chaqirib, yo'q deyishiga qaramay hammomga olib kirib yuvintirdi, qizining kichiklikda kiygan ko'yagini kiydirgan edi, lop-loyiq keldi. Sochlarini quritib-tarab, chiroyli qilib o'rdi. Oynaga qarab, o'zidan mamnun bo'lgan qizaloq muallimasining bo'ynidan quchib oldi.

– Kiyimlaringni yuvib qo'ydim, birpasda qurib qoladi. Ayang ham xavotir olib o'tirgandir, – dedi qizchani yuzini silab qo'yarkan.

– Ayam... – dedi-yu to'xtab qoldi. Bir muddat yerga qarab turdi-da, boshini ko'tarib, Toshbuvining ko'zlariga qarab: – ayamning men bilan ishlari yo'q. O'sha kuni... "Sen qayerdayding" deb baqirdilar. Hech narsa bilan ishlari yo'q. Tizzalarini quchoqlab o'tiraveradilar. Dadam uzoq joyda ishlaydilar, haftada bir keladilar. O'shanda... men bilmay qoldim, dugonalarim bilan o'ynab, ko'rmay qoldim... Ukamning o'rniga men oqib ketsam yaxshiydi...

Ayol titrab ketdi, entikib yig'layotgan qizaloqni mahkam bag'riga bosdi. Shirin so'zlar aytib yupatdi. Ko'nglini ko'tarishga harakat qildi. U hali go'dak edi, ammo cho'ng bir qayg'u uni ham ezib yotardi. Toshbuvi Zilolaning onasi bilan gaplashishni ko'nglidan o'tkazdi.

Hayal o'tmay qizlarni uy-uyiga tarqatib, Keldiyor ham yetib keldi. Birga ovqatlandilar. Qizaloqning ishtaha bilan ovqatlanayotganini ko'rib, ayol ichidan zil ketdi. Yaqin orada issiq ovqat yemagani bilinib turardi.

Qizaloqni Keldiyor kuzatib qo'yadigan bo'ldi. Erinmagan odam. Nabiralalar sog'inchi taftini shular olsa kerak. Qizaloq mehrga tashna edi, ko'pdan u bilan hech kim gaplashmasdi. Dadasi ham uyda kam bo'ladi. Uyda bo'lganida ham uy ishlaridan ortmaydi.

Ikkovlari katta ariq yoqalab ketdilar.

– Keldi buva, bir gap aytsam, hech kimga aytmaymizmi?

– Ayt, qizim, hech kimga aytmayman. – Shu ariq bor-ku, mana shu ariq, men uni yomon ko'raman.

– Ariqni yomon ko'rib bo'lmaydi, qizim. Suvidan ichamid. Chiroyli bog'larni qara, shu ariqning suvi bilan bo'lgan-da.

– Bilaman, – dedi qizaloq kattalardek, – baribir yomon ko'raman, ukamni oqizib ketgani uchun. Suvi ko'paygan paytlari undan ukamning ovozi eshitiladi... O'shanda qo'rqaman, quloqlarimni bekitsam ham eshitiladi... Agar ukam tirilib kelsaydi, yonidan bir qarich jilmasdim. O'shanda dugonalarim bilan juda o'ynagim kelgan edi-da, hozir o'ynagim ham kelmaydi.

Kap-katta erkak bu gaplardan o'zini yo'qotib qo'ydi. Tili kalimaga kelmay qoldi. Engashib qizaloqning jiqqa yosh ko'zlariga ko'zi tushganida o'zini qo'lga olib dedi:

– Zilola qizim, bu ishda sen aybdor emassan, sen o'zing ham hali bolasan.

Ukangni ovozi qattiq sog'inaning uchun eshitilgan, bundan qo'rqama. Ehtimol xafa bo'layotganingni u ko'rayotgandir, opajon, seni aybing yo'q, demogchidir. Rostini aytsam, buni men ham bilmayman. Ammo sen yomon narsalarni o'ylama. Darslaringni yaxshi o'qi. Agar yaxshi o'qisangiz maalimingiz bilan sizlarni shahardagi boqqa olib boraman.

– Keldi buva, mashinangizga hammamiz sig'maymiz-ku?

– Bir gap aytsam, hech kimga aytmaymanmi?

– Aytmayman, birovga aytsam tilim kesilsin.

Keldiyor kulib yubordi va qizchaga qarab dedi:

– Bunaqa qo'rqinchli qasam ichma, senga ishonaman. Shaharga bimalol borib-kelish uchun kichik avtobus olaman, hamma sig'adi.

Qizaloq quvonch bilan jilmaydi. Uylariga yaqin qolganda Zilolaning qadamlari sekinlashdi. Keldiyor buni sezdi. Yarim ochiq darvozadan qizchani uyga kirishini kuzatar ekan, hovlidagi sholchada tizzalarini quchib bir nuqtaga tikilib o'tirgan ayolga ko'zi tushdi. Qiziga qarab ham qo'ymadi. Erkakning unga rahmi keldi, ammo o'n yashar go'dak ham undan kam g'am chekmayotganini eslab jahllandi. O'zini zo'rg'a bosib, jadal ortiga qaytdi.

Toshbuvi rangi bir holda kirib kelgan eriga darhol bir piyola choy tutdi. U sovuq choydan bir yutum ichdi-da, qaytarib xontaxtaga qo'ydi.

– Bugunoq borib Zilola qizingni onasi bilan gaplash, – dedi savol nazari bilan qarab turgan xotiniga. – Bu o'n yashar qiz ko'taradigan dard emas. Menga aytgan gaplarini eshitib, yig'lamoqdan beri bo'lsam... Sen maalimsan. Qanday gaplashishni bilasan, hozir uyiga bor, tonggacha sabrim yetmaydi, ko'zim bilan ko'rmasam ham mayliydi. Shu hoida g'amga botib o'tiraversa, qizini ham boy berganini bilmay qoladi. Bo'l, men ham boraman, tashqarida kutaman, eri uyda yo'q, yotoq ishda.

Toshbuvi va eri kech bo'lganda yo'lga chiqdi.

* * *

Sentabrning yana bir munavvar tongi otdi. Maktab ostonasida o'quvchilarini qarshilayotgan Toshbuvi oq kapalak misol uchib-qo'nib kelayotgan Zilolaga quchog'ini ochdi.

– Maalim, ayam tushlikda yeysizlar deb patir berib yubordi, tong saharda pishiribdi, – dedi oftobdek charaqlab.

O, bu mehr, ona mehri, undan kuchliroq malham yo'qdir!

Kon tomon yo'lga tushgan yuk mashinasi uzoq-uzoq signal berdi. Bolalar chug'urflashib Keldi buvalariga qo'l silkidi, maalim qiz boladek eri ortidan entikib jilmaydi.

SHOHSUPA

(xabarlar)



O'Q OTISH SPORTI



18–26-noyabr kunlari Qatarda o'q otish sporti turlari bo'yicha Jahon kubogining final bosqichi bo'lib o'tadi. Yilda bir marta o'tkaziladigan mazkur nufuzli turnirda dunyo birinchiligida shohsupaga ko'tarilgan 3 nafar sportchi hamda yil davomida Jahon kubogining 6 ta bosqichida eng yuqori reyting ochkolarini jamg'argan 12 nafar mergan ishtirok etishi mumkin. Pnevmatik to'pponchadan otish dasturida O'zbekiston terma jamoasining 2 nafar a'zosi kuchli 12 talikka kirgani bois Xalqaro o'q otish sporti federatsiyasi hamyurtimiz Muhammad Kamalov hamda MVSM vakili Vladimir Svechnikovga taklifnoma jo'natdi. Shu tariqa birinchi marta 2 nafar sportchimiz final bosqichga yo'l oladigan bo'ldi.

VELOSPORT



Velosportning shosse yo'nalishi bo'yicha "Parij–2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga reyting ochkolarini jamg'arish davri yakuniga yetdi. Xalqaro velosipedchilar ittifoqi (UCI) tomonidan e'lon qilingan reyting yakuniga ko'ra, bo'lajak Olimpiadaga O'zbekiston ayollar terma jamoasi 3 ta, erkaklar termasi esa bitta yo'llanmaga ega bo'ldi. Ta'kidlash joiz, shu paytgacha qadar Olimpiya o'yinlariga 4 yo'llanma velosportchilarimiz tomonidan qo'lga kiritilmagandi.

SAMBO



Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida davom etayotgan III Butunjahon jang san'ati o'yinlarining sambo bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarida yakunida terma jamoamiz a'zolari 2 ta oltin, 3 ta kumush va bitta bronza medallarga sazovor bo'ldi. Ibodatxon Agojonova (-59 kg) va Furqat Ro'ziyev (-79 kg) delegatsiyamiz hisobiga oltin medal keltirdi. O'z vazn toifasida finalga qadar o'tkazilgan bahslarda zafar qochgan Dilshodbek Yo'ldoshev, Muhammadali Sa'dullayev va Begoyim Hayitova kumush medal sohibiga aylangan bo'lsa, yarim finalgacha muvaffaqiyatli odimlagan Gulsevar O'roqova bronza medal bilan taqdirlandi.

SHAXMAT



Xalqaro shaxmat federatsiyasi tizimidagi eng nufuzli musobaqalardan biri hisoblangan "Qatar Masters Open" turniri yakunlandi. 9 turdan iborat shiddatli bahslarda O'zbekiston terma jamoasining barcha a'zolari munosib o'yin namoyish etdi. 31 davlatning 158 nafar eng kuchli shaxmatchilari qatnashgan musobaqa yakunida hamyurtimiz Nodirbek Yoqubboyev oltin, Nodirbek Abdusattorov kumush medal sohibiga aylandi. Musobaqani 4-o'rinda yakunlagan yana bir shaxmatchimiz Javohir Sindorov bronza medal sohibi hindistonlik Sunildut Lina Narayanan bilan bir xil, ya'ni 6,5 ochko jamg'ardi, lekin qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha raqibi yuqori pog'onaga ko'tarildi.

TAEKVONDO



Qatarda o'tkazilgan taekwondo WT bo'yicha G1 tasnifidagi "Qatar Open" musobaqasida o'zbekistonlik sportchilar 6 ta medallar shodasiga egalik qildi. 40 dan ziyod davlatning 900 ga yaqin taekvondochisi ishtirokidagi turnir yakunida terma jamoamiz a'zolari Xudoynazar Shodmonov, Laylo Hasanova va Sevinch Hayitova oltin, Ahmad Solihov hamda E'zoza Naimova kumush, Yashinbek Odilov esa bronza medalni qo'lga kiritdi.

IV YOZGI PARAOSIYO O'YINLARI



Xitoyning Xanjchou shahrida IV yozgi Paraosiyos o'yinlari boshlandi va ayni kunda qizg'in pallaga ko'tarildi. Musobaqada delegatsiyamiz 11 sport turida 108 nafar paraatlet bilan ishtirok etmoqda. O'zbekiston delegatsiyasi tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o'rin olgan va sovrindor bo'lmoqda.

Osiyo qit'asi sport muxlislarining diqqati yana Xitoyning Xanjchou shahriga qaratildi. Kuchli iroda va shijoat timsoli bo'lgan paraatletlar IV yozgi Paraosiyos o'yinlarida qatnashib, medallar bilan bir qatorda "Parij – 2024" Paralimpiya o'yinlari yo'llanmalari va reyting ochkolarini uchun kurash olib boryapti. Bahslarda qit'amizning 43 mamlakatidan 4 000 ming nafar para sportchi ishtirok etmoqda.

Xanjchou shahridagi markaziy stadiona IV yozgi Paraosiyos o'yinlarining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Xususan, musobaqada ishtirok etadigan mamlakat sport delegatsiyalarining paradi tashkil etildi. Yengil atletikachi Nurxon Qurbonova hamda suzuvchi Aziz Boynazarov O'zbekiston davlat bayrog'ini ko'targan holda delegatsiyamizni stadionga boshlab kirdi. Shu tariqa qit'amizning 43 mamlakati para sportchilari markaziy stadiona saf tortdi. Paraosiyos o'yinlari madhiyasi yangradi va IV yozgi Paraosiyos o'yinlari bayrog'i ko'tarildi.

To'rt yillikning eng nufuzli kompleks o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi o'z tarixida ilk bor 11 sport turi bo'yicha 108 nafar para sportchi bilan ishtirok etyapti. Para sportchilarimiz musobaqaning para yengil atletika, para o'q otish, para stol tennis, para dzyudo, para taekvondo, para pauerlifting, para velosport, para shaxmat, para kanoe, para akademik eshkak eshish, para suzish dasturlarida qatnashmoqda. Para sportchilarimiz safidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ham o'rin olgan.

O'zbekiston delegatsiyasi bundan besh yil muqaddam Indoneziyaning Jakarta-Palembang shahrida o'tgan III yozgi Paraosiyos o'yinlarida 33 ta oltin, 24 ta kumush va 18 ta bronza, jami 75 ta medalni qo'lga kiritgandi. Bu galgi qit'a o'yinlarini ham para sportchilarimiz muvaffaqiyatli boshladi. Xususan, para kanoe bo'yicha ayollar o'rtasida VL3 klassida final bellashuvlarida ishtirok etgan vakilimiz Shahzoda Mamadaliyeva 58.775 soniya natija bilan marraga birinchi bo'lib yetib keldi va delegatsiyamiz hisobiga ilk oltin medalni yozdirib qo'ydi. Shundan so'ng para kanoe bo'yicha ayollar o'rtasida VL2 klassi bo'yicha bahslarida qatnashgan hamyurtimiz Iroda Rustamova shohsupaga ko'tarildi. 1:02.775 daqiqa vaqt bilan marrani birinchi bo'lib kesib o'tgan Iroda oltin medal bilan taqdirlandi. Hamyurtimiz Azizbek Abdulhabibov (VL2) ham o'z dasturida marraga 42.487 soniyada yetib keldi va oltin medalni qo'lga kiritdi. Para kanoechilarimiz g'olibligi sharafiga IV yozgi Paraosiyos o'yinlarida bayrog'imiz yuksak ko'tarilib, davlatimiz madhiyasi yangradi.

Erkaklar o'rtasida 100 metrga batterflyay usulida suzish bo'yicha kechgan S13 toifasidagi bahslar O'zbekiston terma jamoasi uchun o'ta muvaffaqiyatli o'tdi. Zero yakunda shohsupaga faqat hamyurtlarimiz ko'tarildi – Muzaffar Tursunxo'jayev oltin, Islam Aslanov kumush, Kirill Pankov esa bronza medal bilan taqdirlandi.

Para yengil atletika bo'yicha MVSM tarbiyalanuvchisi, O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Temur Giyazov esa o'z faoliyati davomida ikkinchi marta Paraosiyos o'yinlari sovrindoriga aylandi. Erkaklar o'rtasida T64 klassida balandlikka sakrash bahslarida qatnashgan armiyamiz paraatleti roppa-rosa 2 metr natija ko'rsatib, kumush medalga sazovor bo'ldi. Temur Giyazov 2018-yilgi Paraosiyos o'yinlarida ushbu dasturda oltin medalga egalik qilgandi. O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Yorqinbek Odilov ham delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi kumush medalni keltirdi. Yurtdoshimiz F57 klassida nayza uloqtirish

dasturida 47.72 metr natija bilan ikkinchi ko'rsatkichni qayd etdi. Ayollar o'rtasida F12 klassida yadro uloqtirish dasturida ishtirok etgan hamyurtimiz Safiya Burxonova esa 13.87 metr natija bilan oltin medalni qo'lga kiritdi.

MVSM para yengil atletikachisi Doniyor Ahmedov ham O'zbekiston delegatsiyasi medallarini boyitishga o'z hissasini qo'shdi. T13 klassida 100 metr masofaga yugurish bahslarida qatnashgan armiyamiz paraatleti 11.35 soniya natija bilan marraga uchinchi bo'lib yetib keldi va bronza medal bilan taqdirlandi. Hamyurtlarimiz Sarvar Azimov (F32 klassida kechgan klab uloqtirish) va Urganch Egamnazarov (T11 klassida uzunlikka sakrash) ham para yengil atletika bahslarida bronza medalga sazovor bo'ldi.

Dzyudochilarimiz kabi para dzyudochilarimiz ham "Xanjchou – 2022"da yuqori mahorat namoyish etishdi. Delegatsiyamiz hisobiga medallar yomg'irini yog'dirishni Lobar Hurramova boshlab berdi. Ayollar o'rtasida J2 klassida -48 kg vazn toifasida bellashgan hamyurtimiz yakunda bronza medalga egalik qildi. Shu vazn toifasida J1 klassida kurashgan hamyurtimiz Fotima Toirova ham bronza medal bilan taqdirlandi. -57 kg vazn toifasining J1 klassida bahs olib borgan paraatletimiz Xosiyatxon Poziljonova kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Uljon Amriyeva hamda Kumush Xo'jayeva o'z vazn toifalaridagi bahslarda bronza medalni qo'lga kiritdi.

Erkaklar o'rtasidagi para dzyudo bellashuvlarida muxlislar o'zbekcha finalga guvoh bo'lishdi. -60 kg vazn toifasining J2 klassida kechgan bellashuvlarida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Kemran Nurillayev hamda Sherzod Namozov finalgacha yetib borishdi. Ular o'rtasidagi bahsda Kemran g'alaba qozonib, musobaqa g'olibiga aylandi, Sherzodga esa kumush medal topshirildi. Shuningdek, para dzyudochilarimizdan Feruz Saidov kumush, Uchqun Quronboyev bronza medalni qo'lga kiritdi.

Para taekvondo bahslarida ham delegatsiyamiz hisobiga medallar yozildi. Ayollar o'rtasida -48 kg vazn toifasida finalgacha yetib borgan hamyurtimiz Ziyoda Isoqova kumush medalga sazovor bo'ldi. Erkaklar o'rtasidagi bellashuvlarda qatnashgan Sanjar Muxtorov, Qudrat Haydarov va Javohir Aliqulov o'z vazn toifasi bo'yicha bahslar yakunida bronza medalni qo'lga kiritdi.

IV yozgi Paraosiyos o'yinlarining dastlabki kunlari delegatsiyamiz 12 ta oltin, 12 ta kumush va 14 ta bronza, jami 38 ta medal jamg'ardi hamda umumjamoa hisobida kuchli uchlikda bormoqda. Musobaqa davom etyapti.

DOLZARB MASALALAR

muhokama qilindi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Mudofaa vazirligi hamkorligida "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini yuksaltirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etildi.



Unda Bosh prokuratura vakillari, shuningdek Respublika Harbiy prokuraturasi xodimlari, Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitserlari, ilmiy jamaiyat vakillari, "Temuriylar tarixi" davlat muzeyi mutaxassislari ishtirok etdi.

Anjumanda mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, milliy armiyamiz jangovar salohiyatini yanada yuksaltirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash, jamiyatda tinchlik

va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda istiqbolli chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Muloqotlarda hamkorlikdagi chora-tadbirlar ahamiyatiga alohida urg'u berildi. Masalan, Harbiy prokuratura tashabbusi bilan Mudofaa vazirligining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasida tashkil etilgan "Call-center" markazi hamda

boshqa hamkorlikda tashkil etilayotgan huquqiy targ'ibot va profilaktika hamda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari kabi qator masalalar muhokama qilindi.

Hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida harbiy xizmatchilarning qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini doimiy oshirib borish, yon-atrofmiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi

tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda Harbiy prokuratura, Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi barcha harbiy tuzilmalar, oliy harbiy ta'lim muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini yanada oshirish va takomillashtirish masalalari yuzasidan fikr-mulohazalar almashildi.

Yakunda bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar samaradorligini yanada oshirish yuzasidan o'zaro fikr-mulohazalar almashildi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Adliya polkovniki Sherzod XAYITOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

SANA

ONA TILIM, O'ZINGSAN AZIZ!

*Bobo tilim, momo tilim — gavharim,
Mulki Turon zaminida sarvarim,
Daholarga zabon bo'lgan mehvarim,
Saodatim, shuurim Ona tilim.*



Inson hayotida uch aziz ne'matning beqiyos o'ri bor: ona Vatani, Onasi va Ona tili. Bu ulug' ne'matlar tanlanmaydi, Yaratgandan in'om etiladi. Bu tengsiz ne'matlarni sevish, asrash, ardoqlash insonni ulug'likka musharraf etishini daholar ko'p marotaba ta'kidlashgan. Darhaqiqat, e'tibor qilsangiz, qaysi bir davlat qudratli bo'lsa, o'sha mamlakatda davlat tili asosiy o'rinda turadi. O'sha davlatda yashashni orzu qilguvchilar, albatta o'sha mamlakat davlat tilini o'rganishi shart. Negaki u yurt egalari tillarini sevadi va ardoqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 21-oktabr — o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan "Ona tilim — mangu iftixorim" mavzusidagi ilmiy-adabiy tadbir bayramona ruhda kechdi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazi Shayxontohur tumani bo'linmasi hamkorligida o'tgan tadbirda davlat va jamoat

tashkilotlaridan vakillar, harbiy xizmatchilar, o'quvchi va talabalar ishtirok etdi.

Tadbirda dastlab so'z olgan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori o'rinbosari, falsafa fanlari dotsenti Otabek Jo'raboyev o'zbek tilining jahondagi o'rni, nufuzi haqida to'xtalib, tilimizga hurmat va e'tibor borasida o'rinni fikrlar bildirdi. Davrada so'zga chiqqan mehmonlar — Toshkent shahri hokimining davlat tili bo'yicha maslahatchisi Akmal Ro'zitoyev, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining ilmiy xodimi, shoir Javlon Jovliyev, Shayxontohur tumani hokimining davlat tili bo'yicha maslahatchisi Nargiza Qayumova, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Go'zal Matyaqubova, Ma'naviyat va ma'rifat markazi Shayxontohur tumani bo'linmasi rahbari Nilufar Alibayeva o'zbek tili haqida qiziqarli fikrlar, ta'sirli voqealar so'zlab berishdi. Davlat tilini hurmat qilish, o'zaro yozishmalar va munosabatlarda tilga e'tiborli bo'lish borasida o'rinni misollar keltirishdi.


Qurolli Kuchlar davlat muzeyi xodimi Gulnoza Usmonova davlat tili bilan bog'liq savol-javoblar o'tkazib, g'oliblarga kitoblar sovg'a qildi.

O'z navbatida, davrada ona tilimizga bag'ishlangan va vatanparvarlik ruhidagi she'rlar yangradi. Qurolli Kuchlar akademiyasi guruh komandiri kapitan Iso Shermatov tomonidan o'qilgan taniqli shoirlarning she'rlari dillarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalarining chiqishlari tadbirni bayramona ruhda o'tishiga katta ulush qo'shdi. Ayniqsa, yosh ijrochilar tomonidan tanbur chertib, jonli ovozda kuylangan milliy qo'shiqlar olqishlarga sazovor bo'ldi.

*Millat faxri erur seni asramoq,
Jondek qadrlamoq qarzidir beshak.
Seni unutganlar iymonda yiroq,
Sha'ning yuksaltirar zabdarda bilak.
Zamin mehvarida sharqona sehrim —
O'zbek tilim — betakror tilim.*

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»



Jigar kasalliklarini aniqlashdagi muhim belgi – jigarining kattalashgan yoki kichrayganini uning tepa qismini paypaslab, bilish mumkin. Aslida jigarining yallig'lanishiga, xastalanishiga nima sabab bo'ladi? Agar tibbiyotdan xabari bo'lmagan insonlarga bu savolni bersangiz, ko'pchilik alkogol deb javob beradi. Ammo kundalik turmush tarzida zararsiz bo'lib ko'rinadigan shunday odatlar mavjudki, ular asta-sekin jigar faoliyatini izdan chiqarishi va sog'liqqa ziyon yetkazishi mumkinligini aksariyat odamlar bilmaydi. Masalan, zaharlar, turli dori-darmonlar va ayniqsa alkogol jigarining yallig'lanishi, ba'zida jigar yetishmovchiligiga olib keladi. Bu kokain, paratsetamol, muxamor qo'ziqorini, sariq fosfor, organik eritkichlar va boshqa moddalar bo'lishi mumkin.

EHTIYOT BO'LING, JIGAR – ENG NOZIK A'ZO!

Jigarning yog' bosishi (yog' distrofiyasi)

Yog' distrofiyasi deganda jigarda glikogen o'rniga yog' yig'lgandagi jigarining og'riqli o'zgarishi tushuniladi. Bu kasallik tibbiyotda yog'li gepatoz deyiladi. Asosan noto'g'ri ovqatlanish, kam harakatlilik tufayli yuzaga kelgan semizlik natijasida jigarni yog' qoplaydi. Bunday hollarda jigar ko'pincha kattalashadi. Shubhasiz, yog' distrofiyasining har ikki holati alkogol iste'mol qilinishi bilan bog'liq. Qolgan hollarda turli omillar, masalan, kompensatsiyalanmagan qandli diabet, yog' almashinuvining buzilishi, dori-darmonlar, ishlab chiqarishdagi zararli moddalar ham sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab kasallikni davolash uchun, avvalo, bemor turmush tarzini o'zgartirishi, ya'ni yog'li taomlardan voz kechib, mikronutrientlar va foydali moddalarga boy ozuqalar, meva-sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilishi kerak.

Jigarning yuqumli kasalliklari

Jigarning yuqumli kasalliklarini ko'pincha viruslar qo'zg'atadi. Bakteriya va parazitlar tropiklarda muhim rol o'ynaydi. Jahonda A, B, C virusli hepatitlar keng tarqalgan. Shifokorlar hepatitni "sokin epidemiya" deb ataydilar. Hepatit A ko'pincha yengil tarzda kechadi. Bu kasallikni "iflos qo'llar" kasalligi deb atalishi bejiz emas. Chunki uning yuqishida shaxsiy gigiyenaga rioya etmaslik, tozalik, ozodalikka yetarli e'tibor bermaslik, qaynatilmagan suv ichish asosiy sabab bo'ladi. Hepatit A yuqishi oldini olishning oson yo'li emlashdir. Shuning uchun bolalarni bog'chaga, maktabga berishdan oldin, albatta emlatish lozim.

Hepatit B juda og'ir bo'lib, ba'zida u o'lim bilan tugashi mumkin. Taxminan har o'ninchi bemorda hepatit B surunkali bo'lib qolishi sababli, bu kasallik ko'pgina bemorlarga tashvish olib keladi. Ya'ni hepatitning bu holati ko'pincha jigarining burishishiga yoki jigar saratoniga sabab bo'ladi. Hepatit C virusi esa jigarining og'ir yallig'lanishiga olib keladi. U butun dunyoda o'lim holatlari oshishiga sabab bo'lib, bu sog'liqni saqlash sohasi uchun ulkan muammodir. Unga qarshi vaktsina hozircha yo'q.

Odamlar yillar davomida hepatit bilan kasallanganlarini bilmay yurishlari mumkin. Hepatit C bilan zararlanganlarini aniqlaganlarida esa, ko'pincha juda kech bo'ladi, kasallik jigar serroz, hatto jigar saratoniga aylanadi.

Umuman olganda, sariq kasalligiga toza bo'lmagan ichimlik suvini iste'mol qilish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etmaslik, sterilanmagan tibbiy asboblardan foydalanish va giyohvandlik holatlari sabab bo'lishi mumkin.

Jigar sirrozi

Jigarning butkul ishdan chiqishiga olib keladigan sirroz kasalligi nafaqat spirtli ichimlikka mukkasidan ketgan kishilar, balki boshqalarda ham kuzatilishi mumkin. Bu kasallik surunkali jigar kasalligining eng so'nggi bosqichi sanaladi. Bunda infeksiya, spirtli ichimlik va boshqa sabablar ta'siri ostida jigar hujayralari o'ladi va o'rnini biriktiruvchi to'qimalar egallaydi. Oqibatda jigar o'z vazifasini bajara olmaydi, ichki qon aylanishi ishdan chiqib, jigar yetishmovchiligi rivojlanadi. 80 foiz hollarda sirroz spirtli ichimlik sabab kelib chiqqani bilan ayrim paytlarda uni og'ziga olmagan odamda ham kasallik kuzatilishi va bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- * surunkali virusli hepatit (B, C);
- * o't yo'li kasalliklari;
- * dorilardan va kimyoviy zaharlanish;
- * ratsionda oqsil va vitaminlarning surunkali tanqisligi;
- * moddalar almashinuv bilan tug'ma jiddiy muammolarning borligi.

Uni davolasa bo'ladimi?

Odamlar orasida tuya suti ko'plab og'ir kasalliklar, jumladan jigar sirroziga davo bo'ladi, degan tushuncha bor. Biroq mutaxassislar fikriga ko'ra, tuya sutining sirrozni yoki boshqa og'ir kasalliklarni davolashda samara berishi tibbiyotda isbotlanmagan. Qolaversa, xomligicha ichilgan sut boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bemorga brutsellyoz yuqishi xavfi ortadi. Boz ustiga katta yoshli odamlarda sutni hazm qiluvchi fermentlar yo'qligi tufayli sutning hazm bo'lishi qiyinlashib, ichak dam bo'ladi. Allergik reaksiyalar kelib chiqishi mumkin.

Umuman olganda, sirroz kasalligini davolashning yagona

radikal usuli – jigar ko'chirib o'tkazish hisoblanadi. Lekin agar bemorda kasallik birinchi yoki ikkinchi bosqichlarida aniqlansa, uni sekinlashtirish va rivojlanishining oldini olish mumkin.

Jigar o'smasi – gepatosellular adenoma

Gepatosellular adenoma jigarda kam uchraydigan o'smadir. Bu o'sma ko'proq tuguruq yoshidagi ayollarda, ayniqsa peroral kontratseptiv vositalarini (*homiladorlikdan saqlovchi dorilar*) qabul qiladiganlarda uchraydi. Odatda u biror belgi bermaydi. Ko'pincha profilaktik tekshiruvlarda yoki boshqa kasalliklar uchun tekshirish jarayonida aniqlanadi. O'sma o'lchami kattalashib ketsa, qorinning yuqori o'ng tomonida og'riq kuzatilishi mumkin. Eng yomoni, o'sma yorilib, qorin bo'shlig'iga qon ketib qolishi mumkin. Bunday holatda shoshilinch ravishda operatsiya qilish kerak bo'ladi. Kasallikni ultratovush tekshiruvi (UTT), kompyuter tomografiya (KT) va magnit rezonans tomografiya (MRT) orqali aniqlash mumkin. Agar tekshiruvlar natijasida adenoma ekanligiga shubha qilinsa, kasallikni tasdiqlash uchun biopsiya (*o'smaning bir qismini olib, uni gistologik va sitologik tekshiruvdan o'tkazish*) qilinadi.

Agar gepatosellular adenoma peroral kontratseptivlar natijasida kelib chiqqan bo'lsa, ularni qabul qilishni to'xtatish orqali yo'qotish mumkin. Agar o'sma o'lchami katta bo'lsa yoki jigarining tashqi yuzasiga yaqin joylashgan bo'lsa operatsiya qilib, olib tashlanadi. Agar olib tashlanmasa, u yomon sifatli o'smaga aylanib ketishi mumkin.

JIGAR FAOLIYATIGA ZARAR YETKAZUVCHI ODATLAR

Shirinliklar

Shirinliklarni ortiqcha iste'mol qilish jigarining yog' bosishiga sabab bo'ladi. Qarabsizki, jigar sirrozi va saraton kasalligi rivojlanadi. Agar kuniga 1 000 ta "shirin" kaloriya iste'mol qilsangiz, jigarining yog' bosish xavfi 1:4 ga teng bo'ladi. Bu esa organizm uchun juda ko'p degani.

Dorilar (polivitamin) qabul qilish

Ko'pchilik shifokorlar bizga oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan vitamin va minerallar, haqiqatan foydali ekanini ta'kidlaydi. Ammo polivitaminlar sog'lig'imizga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, balki eng yomon holatda zarar yetkazadi. Jigar – tananing vitaminlar "zarbasi"ga eng ko'p duchor bo'ladigan organidir. Birgina

misol, A vitaminining haddan tashqari iste'mol qilinishi jigarini o'ldirib, sirroz rivojlanishiga olib keladi.

Ortiqcha vazn

Bel sohasida to'plangan ortiqcha vazn juda xavflidir. Chunki u visseral yog' gormon ishlab chiqarishga va bu o'z navbatida jigar faoliyatiga yomon ta'sir qilishi mumkin.

Paratsetamol qabul qilish

Paratsetamol – shamollash, gripp holatlarida va tish, bosh og'rig'ida ishlatiladi. Tavsiya etilgan miqdorda xavfsiz, ammo oshib ketsa, jigarga zarar yetkazadi. Shuning uchun har qanday holatda shifokor ko'rsatmasiga qat'iy amal qiling va hech qachon paratsetamolni o'z ichiga oluvchi ikki mahsulotni bir vaqtning o'zida iste'mol qilmang!

Tezpushar (fast-food) ovqatlar iste'moli

Biz iste'mol qiladigan "trans-yog'lar" asosan qovurilgan kartoshka (*fri*), naggets, gamburger, shuningdek do'konda sotiladigan nonlar va hatto popkornda ham mavjud. Trans yog'lar nafaqat jigar uchun xavfli, balki ular bu organing juda tez semirib ketishiga olib keladi.

Umumiy va foydali maslahatlar

Jigar kasalligidan shikoyati bor bemorlar alkogoldan voz kechishi, dorilarni ehtiyotkorlik bilan qabul qilishi, jigarga zaharli ta'sir ko'rsatuvchi moddalar bilan ishlaganda ehtiyotkorlikka rioya qilishlari zarur. Ovqat tarkibidagi osh tuzi miqdorini kamaytirish, non, kolbasa, pishloq va tarkibida osh tuzi ko'p bo'lgan mahsulotlarni kam iste'mol qilish kerak. Kasallik kuchayganda 3 kunlik guruch, sabzavotli parhez tavsiya etiladi (*qaynatilgan guruch, meva sharbati yoki kompot, sabzavotli salat bilan*). So'ngra odatdagi ratsionga o'tiladi va unga kartoshka, yog'siz tvorog ham qo'shiladi. Har kuni sut ichish kerak bo'ladi. Konservalar, shokolad, mayonez, ketchup va boshqa mahsulotlarni iste'mol qilish man qilinadi. Ovqatlanish sonini ko'paytirib, miqdorini kamaytirish muhim o'rin tutadi. Shifokor belgilagan dorilarni doimo iste'mol qilish ham maqsadga muvofiqdir.

Sog'lom insonlar esa shaxsiy gigiyenaga qat'iy rioya qilish, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, o'z vaqtida dam olish, meva va sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilish, yog'li ozuqalardan tiyilish, gazli suv ichmaslik, tez tayyor bo'ladigan ovqatlardan voz kechish va yana bir muhim jihat, hamisha jismoniy harakatda bo'lish orqali jigarining kasallanmasligiga erishishlari mumkin.

G. HODJAMURATOVA
 tayyorladi.

KO'NIKMALAR SAYQALLANMOQDA

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirda harbiy tayyorgarlik o'quv markazida oliy ta'lim muassasalarining 3-bosqich talabalari front orti va moliyaviy ta'minot siklida beshta mutaxassislik yo'nalishida: oziq-ovqat hamda kiyim-kechak ta'minotini tashkillashtirish, yong'in xavfsizligini tashkillashtirish va qo'shinlarni jangovar hamda xo'jalik faoliyatining iqtisodiyoti va moliyaviy ta'minoti, yonilg'i va moylash mahsulotlari ta'minoti bo'yicha tahsil olmoqda.

Talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini yanada oshirish va mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi va Toshkent harbiy okrugi harbiy qismlari bilan hamkorlikda ko'rgazmali va amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinyapti.

Xususan, harbiy qismlarning moddiy texnik bazasida moddiy vositalarni qabul qilish, saqlash, tarqatish qoidalari, shaxsiy tarkibning ovqatlanishini tashkillashtirish hamda vzvod xo'jaligini yuritish bo'yicha professor-o'qituvchilar, harbiy qism komandirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha o'rinbosari va xizmat boshliqlari tomonidan mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.



Jumladan, Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qism moddiy texnik-ta'minot bazasida o'tkazilgan ko'rgazmali amaliy mashg'ulotlarda talabalar harbiy qism nazorat o'tkazish punktining tuzilishi va unda ishlash tartibi, oziq-ovqat omborxonasida mahsulotlarni saqlash va tarqatish, oshxonada jihozlari va oziq-ovqat xizmati texnik vositalari, kiyim-kechak xizmati bo'limi, hammom-kirxona xizmati, kiyim-kechak omborxonasi, ta'mirlash ustaxonasi, yoqilg'i moylash

xizmati, moylash omborxonasi va texnik vositalari hamda yoqilg'i quyish punktlari obyektlarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazishdi.

Shu bilan birga Qurolli Kuchlar akademiyasi va O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'rtasidagi hamkorlik memorandumini asosida professor-o'qituvchilar bilan birgalikda ikki tomonlama hamkorlikda mahorat darslari tashkillashtirildi. Bu kursant va

talabalarning nazariy-amaliy bilimlarini oshirishda o'z samarasini bermoqda.

Tashrif jarayonida talabalar harbiy qism moddiy texnik-ta'minot obyektlari va xizmat turlari hamda ularning faoliyati bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qildilar va o'z taassurotlarini boyitdilar.

**Iste'fodagi polkovnik
Sadriiddin MAXSUDINOV,
Harbiy tayyorgarlik
o'quv markazi o'qituvchisi**

OILA – HAYOT GULTOJI

QADIM QADRIYATLAR BESHIGI

Oila jamiyat ma'naviy hayotida, uning barqaror rivojlanishida g'oyat muhim o'rin tutadi. Chunki eng e'zozli, qadim qadriyatlarimizning ildizi oilaga borib taqaladi. Yurtning ertasi, kelajagi bo'lgan barkamol avlod dastavval oilada kamol topadi, shakllanadi. Zero jamiyat va millat o'z kelajagini sog'lom avlod istiqboli, sog'lom turmush tarzi bilan belgilaydi. Shu sabab ham qadim-qadimdan Sharqda oila muqaddas Vatan deya e'zozlangan.



O'zaro hurmat va ahillikka asoslangan, farovon, mustahkam oilalar el-yurtga tayanch bo'la oladi. Yurtimizda huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida oilaning o'rni alohida ko'zga tashlanadi. Eng avvalo u kamil insonni kamol toptiradi, ijtimoiy qadriyatlar va milliy an'analarni avlodlardan avlodga o'tkazishda asosiy zanjir vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaga alohida e'tibor berilgani ham uning jamiyat hayotida nechog'liq qimmatli o'rin tutishini anglatadi. Negaki oila jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida, uning nufuzida alohida mavqeni egallaydi. Jamiyatda oilaning tinch-totuvligi, mustahkamligi adolatli fuqarolik jamiyati

rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni hisobga olgan holda Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy qism va muassasalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislar harbiy xizmatchilarning oilalarini ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va huquqiy saviyasini oshirishga yaqindan yordam berish, onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shish, harbiy oila bekalari o'rtasida kasanachilikni, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish kabi vazifalarni amalga oshirish borasida salmoqli vazifalarni bajarib kelmoqda.

Toshkent harbiy okrugi miqyosida harbiy xizmatchilarning oilalarida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlarni sarhisob qilar ekanmiz, "Oila – ma'naviyat beshigi", "Oila – muqaddas dargoh", "Sog'lom oila – sog'lom kelajak", "Ayol va huquq", "Vatanparvarlik – muqaddas burch", "Vatan himoyasi – muqaddas" kabi mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning doimiy ravishda o'tkazilib kelinayotganining o'zi oila ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutmoqda.

Harbiy xizmatchilarning oilalari o'rtasida millatimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlarni, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, oila a'zolari o'rtasida oila madaniyati va odobi, oilada er-xotinlik munosabatlari, kamol

topayotgan farzandlarning tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, har tomonlama kamil harbiy xizmatchi oilasini shakllantirish maqsadida sport hamda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda o'tkazilayotgan tadbirlarimiz ham harbiylar oilasining farovonligi, tinchligi, totuvligi, farzandlar tarbiyasiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilar oilalari tinchligi va farovonligi uchun olib borayotgan bu sa'y-harakatlar zamirida Vatan tinchligi, yurt obodligi, ertangi kunimizga munosib o'g'il-qizlar tarbiyalashda muhim tayanch bo'lish kabi ezgu maqsad mujassam.

**Odina ODILOVA,
Toshkent harbiy okrugi
yetakchi mutaxassisi**

AVJ OLAYOTGAN VIRTUAL QABILABOZLIK

yoʻxud ultra zamonaviy dunyoda
ibtidoiylashayotgan biz...



Qabila deganda o'qimishli odamning ko'z oldiga ibtidoiy jamoa tuzumi davri, "TikTok"chi avlod tasavvurida esa Mel Gibsonning "Apokalipsis" filmi gavdalanadi. Yagona "sardor" atrofida birlashgan, aft-angori va badanining ayrim joylari temir-tersak bilan "bezatilgan", ko'zlari doim qonsirab, xavfsirab turadigan, qo'shni qabila a'zosining yuragi yoki da bosh chanog'ini bamaylixtor sixga tortadigan yovvoyi to'da, xullas.

Tabiiy savol tug'iladi, "turqisovuq" qabilalar bilan bizni, XXI asrning megamadaniy kishisini nima bog'lab turadi? Javob bitta – mentalitet! Quloqqa yoqimsiz eshitiladi, ammo olimlarning xulosasi shunday: qabilaviy mentalitet barcha tirik mavjudotlar kabi inson tabiatiga ham xos. To'g'ri, hozir kamondan o'q otib, bir-birini "g'ajiydigan" qabilalar yo'q. **Lekin bir narsa aniq, sut bilan kirgan – jon bilan chiqadi...**

PUTINOID, BAYDENQUL VA TRAYBALIZM

Kuzatayotgan bo'lsangiz, bugun ijtimoiy tarmoqlarda kimnidir faqat fikri uchun yoqasidan olish, haqoratlash, shaxsiyatini toptash (*masalan, laqab bilan atash*), bir toifa o'ziga ters qarashga ega boshqa bir toifani degumanizatsiya qilishi odatiy (*afsuski*) ijtimoiy hodisaga aylangan. Uzoqqa borish shart emas. Rossiya – Ukraina ziddiyati fonida media platformalarda virtual qabilabozlik avj olgani, o'zbek siyosiy lingvistikasi – "putinoid",

"baydenqul" kabi yangi antonim so'zlar bilan boyigani yuqoridagi fikrlarga yorqin misol.

Insonlarning o'ziga o'xshaganlar bilan "qabila" bo'lib birlashish ishtiyoqi hamda boshqa ijtimoiy guruhlariga ashaddiy dushman sifatida qarashi fan tilida "traybalizm" deyiladi. Bu tushuncha o'zida "Biz" va "Ular" o'rtasidagi azaliy urushni ifodalaydi, traybalistik mentalitet olamni oq va qora, yaxshi yoki yomonga ajratadi. Oltin o'rtaliqqa o'rin yo'q bunda.

Bu haqda **Arizona universiteti professori, faylasuf Allen Byukenen** "Bizning axloqiy taqdirimiz: evolyutsiya va traybalizmdan qochish" kitobida shunday deydi:

"Tortishuv, fikrlar qarama-qarshiligi bilan traybalizm o'rtasida juda katta farq bor. Bunda siz – siz bilan fikri bir joydan chiqmagan kishini shunchaki nohaq deb hisoblamaysiz, balki siz uchun u tuzatib bo'lmis ahmoq, dezinformatsiyaga to'yingan to'nka, nosamimiy va hatto yovuz. Boshqacha aytganda, siz uning mulohazasi noto'g'riligi uchun emas, eshitishga va muomalaga layoqatsizligini rad etasiz. Inson ongli xilqat va u bilan bahslashish mumkinligini o'ylamaysiz..."

– Ayrimlar ijtimoiy tarmoqlardan muloqot uchun emas, o'zlarining muayyan guruhga mansubligini ko'rsatib qo'yish uchun foydalana boshladi, – deydi **amerikalik jurnalist va yozuvchi Jonatan Raux** "Ijtimoiy tarmoqlar, traybalizm va feyk axborotlar tarqalishi" maqolasida. – Bundaylar muhokamalarda qaysidir masalaga o'z shaxsiy nuqtayi nazarini ma'lum qilmaydi, asosiy maqsad "dushman taraf"ni tahqirlash evaziga "qabila" orasidagi virtual avtoritetini oshirish hamda "sardor"ning nazariga tushish. Bo'ldi.

KOMFORT MEDIAMUHI KASOFATI

Xo'sh, nima uchun zamonaviy odamlarda ko'proq tosh davriga xos bo'lgan yovvoyi mentalitet kuchayib boryapti? Qanchalik g'ayritabiiy yangramasin, sun'iy intellekt va neyropsixologiya sohasi tadqiqotchilarining javobi bitta – haddan tashqari **komfort mediamuhit ta'sirida!**

Ya'ni hozir ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari kishilarning tarmoqdagi materiallarga reaksiyasi, qidiruv tizimiga bergan kalit so'zlaridan kelib chiqib, faqat ularning ko'ngli tusagan, ularga ma'qul keladigan "taom"larni – axborotni tortiq etadi, atrofida ham faqat o'zlariga hamfikir, did-farosati, dunyoqarashi o'xshash, postlarini qiyo boqmay layklaydigan, xullas, zuvalasi bitta joydan olinganlar to'planadi.

Deylik, siz "**Vaksina insonni ikki shoxli hayvonga aylantiradi**" degan xabarga layk bosdingiz. Hushyor algoritim darrov lentangizda vaksinaning "og'ir oqibatlarini" haqidagi postlarni qalashitirib tashlaydi, antivaksinachi sayt, guruh, profil va sahifalarni tavsiya etadi. Sun'iy intellekt odatda salbiy hislar uyg'otadigan, g'azabni qo'zitadigan kontent. Masalan, "**Shok. Ikki marta emlangan onadan ko'zining oq pardasi yo'q go'dak tug'ilibdi**" yoki "**Vaksina olgan 12 yoshli bola hushidan ketib yiqildi**" sarlavhali feyk xabarlariga urg'u beradi. Chunki bunday "yangiliklar" odamlarni tarmoqda ko'proq vaqt qolishini ("**Vaksinaning X xossasidagi moddalar va ularning to'qimalarga organik ta'siri**" degan postga kim ham qayrilib qaraydi hozir?!) ta'minlaydi.

Achinish hissi, ruhiy azoblanish, asabiylashish esa "vaksinasi go'zal hayot" konsepsiyasini himoya qilish instinktini yanada kuchaytiradi. Shu tariqa vaksinatsiya tarafdorlariga nisbatan o'ta agressiv, istalgan ilmiy tadqiqotni ko'r-ko'rona rad etadigan, o'zlarining "haqiqati"dan boshqasiga tupuradigan navbatdagi "qabila" paydo bo'ladi...

TAFAKKUR TANAZZULI

Raqamli qabilachilik odamlarda **tanqidiy fikrlash koeffitsiyenti tushib ketishi, dunyoning umumiy manzarasini idrok etish qiyinlashishi, diqqat tanqisligi sindromi paydo bo'lishi, oddiyoq aytganda, tafakkur tanazzuli bilan bog'liq.**

– Internet o'z taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangilish yoki noxolis qarashlarni tasdiqlovchi mashina vazifasini o'tayapti, – degan edi **dunyoning eng boy odami, "Amazon" rahbari Jeff Bezos**. – Agar siz biror fikrda qat'iy turgan holda, tarmoqda u yoki bu narsani izlasangiz, o'z qarashlaringiz isbotini albatta topasiz. Mabodo yangiliklar lentangiz sizga biror xabarni ko'rsatayotgan bo'lsa, bilingki, sun'iy intellekt faqat sizning nuqtayi nazarinigizni ifodalovchi axborotnigina taqdim etyapti.

O'z qarashini aks ettiruvchi va mustahkamlovchi ma'lumotlarga qayta-qayta duch keladigan infomuhit esa kishilarda fikrga nisbatan toqatsiz kayfiyatni kuchaytiradi. **AQShdagi Ueyna davlat universiteti professori Arash Javonbaxtning** ta'kidlashicha, tadqiqotlarning birida 61 foiz amerikalik kimnidir faqat siyosiy pozitsiyasi yoki yozgan posti uchun do'stlari safidan chiqarib tashlaganini ma'lum qilgan.

– Inson tafakkurida torayish tendensiyasi kuzatilyapti, – deb yozadi u "**Bigthink**"

nashridagi maqolasida. – Umumiy manzarani idrok qilish tobora qiyinlashyapti. Kitob yoki uzun matn o'qish juda ko'p odamlar uchun azob bugun. Skrolling, ya'ni "tasma aylantirish madaniyati" kishilarda diqqat tanqisligi sindromini keltirib chiqaryapti. Aksar **foydalanuvchilar Facebook'dagi yangiliklar lentasidagi bitta xabar uchun o'rtacha 1,7 dan 2,5 soniyagacha vaqt sarflaydi.** Bu ham bizdagi tanqidiy fikrlash funksiyasini o'ldiryapti.

YO ASLING KABI KO'RIN, YO KO'RINGANING KABI BO'L...

Ba'zan shunday bo'ladi. Siz hayotda bilgan, tanigan odamlar ijtimoiy tarmoqlarda butunlay boshqa insonga aylanadi, qaysidir postingiz ostida qoldirgan izohlaridan yoqa ushlaysiz. Tavba, bu odamga nima jin urdi? Nega to'satdan tashlanib qoldi? Ko'cha-ko'ya duppa-durust ko'rishib yurardi-ku! **Bilib qo'ying, virtual "qabilachilik"ning ilk simptomlari bu.**

Nima qilish kerak? Ko'tarilgan mavzu fanda hali chuqur o'rganilmagan noodatiy hodisa – ijtimoiy-psixologik fenomen. Shundan bo'lsa kerak, unga qarshi konkret axborot-profilaktik tavsiyalar ishlab chiqilmagan. To'g'ri, ayrim mulohazalar yo'q emas. Deylik, "**yopishqoq**", ya'ni "**tavsiya etuvchi**" algoritim irodasiga bo'ysunmaslik – **xabarlar lentasini xronologik (joylashtirilgan vaqtiga qarab) tartiblash orqali kuzatish, faktlarni boshqa manbalar bilan solishtirish, ko'proq gazeta va kitob o'qib, diqqatni charxlash** shular jumlasidan.

Biroq bizningcha, bu boradagi eng yaxshi fikr bir necha asr muqaddam Mavloni Rumiy aytgan: **yo asling kabi ko'rin, yo ko'ringaning kabi bo'l**. Real hayotda ham, virtual dunyoda ham inson o'zligini his qilib yashashi kerak. Ijtimoiy mavqeyimizga putur yetkazishi mumkin bo'lgan taqdirda ham "yo'q" deb dadil ayta olamiz shunda. **Faqat shu tuyg'u bizni (virtual) olomon – "qabila" orasida singib, ma'nan yemirilib ketishdan, ibtidoiylardan saqlab qolishi mumkin.**

Odatda mediasavodxonlik deganda feyk, dezinformatsiya, virtual firibgarlik, kiberbulling kabi axborot tahdidlariga qarshi kurash tushuniladi. To'g'ri, bular juda muhim, ammo oqibatini bartaraf etsa bo'ladi. **Lekin ultra zamonaviy dunyoda tafakkurdan judo qiladigan alomatlarni payqamaslikning badali undan ham og'irroqdir.**

Firdavs NURULLOH,
jurnalist

“Go‘zal o‘yla, go‘zal yasha!”



“O‘ylaring so‘zlaringga, so‘zlaring fe‘lingga, fe‘ling taqdiringga nuqs etadi. Go‘zal o‘yla, go‘zal yasha”. Mavlono Jaloliddin Rumiyning ushbu hikmati Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari sinfi devoriga katta-katta harflar bilan yozilibdi. Va bu hikmat qaysidir ma‘noda yurt himoyachilari hayotining mazmun-mohiyatini aks ettiradi. Vatanga baxshida umrdan ham go‘zalroq yasham bormi?!

25-oktabr – Ichki ishlar xodimlari kuni arafasida Qurolli Kuchlar akademiyasida ana shu sinfning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Qorovul qo‘shinlari qo‘mondoni polkovnik Hasan Botirov, akademiya faollari, soha faxriylari ishtirok etdi.

Qo‘mondon sinfi Qorovul qo‘shinlari faoliyatini fotosuratlarda, ayrim joylarda ramziy belgilar yordamida o‘zida aks ettiradi. Mayor Nosirjon Ibragimov yig‘ilganlarga mazkur sinfdagi jihozlar, ko‘rgazmali va targ‘ibot vositalari, eksponatlar haqida gapirib berdi.

Qo‘mondon sinfining ochilishi uch avlod uchrashuviga ulanib ketdi.

Polkovnik Hasan Botirov o‘z ma‘ruzasida Qorovul qo‘shinlarida keyingi yillarda olib borilgan ishlar, ulkan o‘zgarishlar, salmoqli yutuqlar haqida to‘xtaldi.

Qurolli Kuchlar akademiyasi boshlig‘i polkovnik Bobur Shayakubov yig‘ilganlarni qutlar ekan, qo‘mondon sinflari bu yerda muntazam ravishda yo‘lga qo‘yilgan ochiq eshiklar kunida o‘quvchilar uchun kasbga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta‘kidlab o‘tdi. Shuningdek, iste‘fodagi general-mayor Habibulla Hojimatov ham yurtimiz bo‘ylab qilgan targ‘ibot safarlarida tizimda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga guvoh bo‘layotganini to‘lqinlanib so‘zladi.

– Mening bir aybim bor, – dedi jumladan so‘zga chiqqan iste‘fodagi polkovnik Ahmadjon Abdurahmonov barchani hayratga solib (80 yoshni

qoralagan shunday mo‘tabar insonning qanday aybi borligi qiziq-da), – ba‘zan she‘rlar yozib turaman!

Ana sizga ayb! Hayotining 35 yilini yurt xizmatiga bag‘ishlagan faxriyning qo‘shiqqa aylangan “Shonli qo‘shinlarim” so‘zi bilan Qorovul qo‘shinlari o‘zini tanitib kelmoqda.

Soha faxriylari yoshlarning ko‘pdan ko‘p savollariga javob berdilar. Kursant Xudoyberdi G‘ulomov saboqdoshlari nomidan mo‘tabar mehmonlarga minnatdorlik bildirdi.


Kasb bayrami munosabati bilan Qurolli Kuchlar akademiyasining bir qator professor-o‘qituvchilariga, faxriylarga qimmatbaho sovg‘alar topshirildi. Qorovul qo‘shinlarining namunali va ko‘rgazmali harbiy orkestri yangiroq kuy-qo‘shiqqlari bilan tadbirga alohida fayz bag‘ishladi.

Inobat IBROHIMOVA,
«Vatanparvar»

Kichik serjant Komiljon ABDURASHIDOV

“INNOWEEK.UZ – 2023”

“YOSHLAR INNOVATSIYA TARAFDORI”



Toshkent shahrida joylashgan “Alpomish” muz saroyida yurtimizdagi eng yirik innovatsion tadbir “InnoWeek. Uz – 2023” xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida MDH davlatlari yosh olimlarining “Yoshlar innovatsiya tarafdori” shiori ostida birinchi kongressi bo‘lib o‘tdi.

Unda MDH tashkilotiga a‘zo – Ozarbayjon, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston hamda O‘zbekiston davlatlaridagi innovatsiya sohasiga mas‘ul vazirliklarning yoshlar innovatsiyasi bo‘yicha faoliyat yurituvchi yosh liderlari qatnashdi. Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti ham 10 ga yaqin loyihalar bilan ishtirok etdi.

Kongressning barcha ishtirokchilari “Yoshlar innovatsiya tarafdori” mavzusidagi davra suhbatida hamda “Yoshlar, kreativ ta‘lim va innovatsiya” mavzusidagi panel sessiyasi davomida o‘zaro fikr almashdilar va hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha takliflar bildirilib, turli yo‘nalishlarda ikki tomonlama deklaratsiya va hamkorlik memorandumlarini imzoladilar.

Yoshlar akademiyasi tomonidan “InnoWeek.Uz – 2023” haftaligi doirasida 10 dan ortiq tadbirlar tashkil etilib, eng munosib ishtirokchilar taqdirlandi.

Tadbirida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri I. Abdurahmonov Yoshlar akademiyasi liderlaridan kutilayotgan natijalar, Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Tadbir yakunida liderlar tomonidan Yoshlar akademiyasining 2030-yildagi ko‘rinishi bo‘yicha bildirilgan fikrlar vaqt kapsulasiga joylashtirildi.

Mayor Sherqo‘zi XAKIMOV,
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

QUYIDAGI MASALALAR BO‘YICHA MUROJAATLARINGIZ BO‘LSA, QO‘NG‘IROQ QILING:



- psixologik qo‘llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlar;
- shaxs sifatida rivojlanish;
- psixologik maslahat olish;
- nizoli masalalar bo‘yicha psixologik yordam ko‘rsatish;
- bolalar psixologiyasi;
- stressli vaziyatlar.

HAL QILIB BO‘LMAYDIGAN MUAMMO YO‘Q,
HAR QANDAY VAZIYATDAN CHIQUISHNING
MUNOSIB YO‘LI BOR!



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



<p>VATANPARVAR</p> <p>MUASSIS</p> <p>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</p> <p>www.mudofaa.uz</p>	<p>Tahririyat kengashi: general-mayor Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov</p>	<p>Bosh muharrir: podpolkovnik Ahror Ochilov</p>	<p>Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Hojimurodova Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo‘ziyeva Musahhih: Zebo Sariyeva</p>	<p>Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqan boshlagan.</p>
	<p>Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.</p>	<p>ISSN 2010-5541</p> <p>Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Telefonlar: kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo‘lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29</p>	<p>Buyurtma: V-5625 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 31 285 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30</p> <p>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.</p>	<p>Nashr ko‘rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda. “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.</p> <p>1 2 3 4 5 6</p> <p>Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 1-uy.</p>